

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA'LIMI
FA'KULTETI**

MUSIQIY TA'LIM YO'NALISHI

**MUSIQA NAZARIYASI VA AN'ANAVIY
IJROCHILIK KAFEDRASI**

**«OPERA IJODIYOTINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI»
(M.ASHRAFIY OPERALARI MISOLIDA)**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: kunduzgi bo'lim talabasi S.Boboyeva
Ilmiy rahbar: P.F.D.prof. M.Quronov

Malakaviy bitiruv ishi musiqa nazariyasi va an'anaviy
ijrochilik kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2014 yil ___maydagi majlisida muhokama
qilindi va himoyaga tavsiya etildi (Bayonnoma №10)

Kafedra mudiri:

kat.o'qit. Sh.N.Mustafoev

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning
2014-yil ___iyundagi majlisida
Himoya qilindi va ___foizga baholandi
(Bayonnoma №)
YaDAK raisi:
A'zolari:

**Mavzu: “Opera ijodiyotining yoshlar tarbiyasidagi o’rni”
(M.Ashrafiy operalari misolida)**

R E J A

Kirish

I Bob. Opera san’ati inson tafakkuri yuksak namunalaridan biri.

- 1.1. Musiqali drama spektakllari orqali yosh avlod ma’naviy dunyosini boyitish.
- 1.2. Opera janrining o’zbek kompozitorlari ijodiyotida tutgan o’rni.
- 1.3. Opera janri orqali maktab o’quvchilarining jahon musiqa madaniyati haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

II BOB. Opera san’ati orqali o’quvchi yoshlarni jahon musiqa san’ati va o’zbek opera san’ati to’g’risida tushuncha berish.

- 2.1. Muxtor Ashrafiy birinchi o’zbek operasi ijodkori sifatida.
- 2.2. Umumta’lim maktablarining musiqa madaniyati darslarining musiqa tinglash jarayonida opera janrlaridan foydalanish uslublari.
- 2.3. O’zbek kompozitorlarining opera asarlari orqali yoshlarda musiqiy idrokni tarbiyalash.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Kirish qismi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi: Mustaqillik yillarida O'zbekistonda asrlar osha yashab kelayotgan tomosha san'ati an'alarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, moddiy texnik negizini yanada mustahkamlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohatlarda teatr arboblarning faol ishtrokini ta'minlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi badiiy barkamol sahna asarlarini yaratish, maxsus ta'lim tizimini zamon talablariga mos holda takomillashtirish, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'laroq qondirish maqsadida Prezident Islom Karimov tomonidan bir qancha farmon va qarorlar qabul qilingan.¹ "Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq,-deb yozadi Prezident Islom Karimov-ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni, milliy o'zlikni anglashni o'sishdek, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz."²

Umuman, istiqbol tufayli jamiyatimiz hayotida sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar teatr san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. O'zbek teatr rivoji davlat ahamiyatiga molik vazifa sifatida qaralayotgan bu yo'ldagi ishlarning yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Mamlakatimiz Prezidentning "O'zbek teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi 1998 yil Farmoni Milliy teatr san'atining istiqbolini belgilab bergan xujjat bo'ldi. Bu farmon teatr san'atining barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan ham diqqatga sazovordir. Hozirgi kun ijtimoiy hayotimizda nafaqat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalar balki, inson, ayniqsa, yosh avlod ma'naviyati, erkin, ozod shaxs ma'rifatiga, madaniyat va san'atining rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezident I.Karimov tomonidan qabul qilingan farmonlar asosida zamonaviy asarlar bilan birgalikda klassik asarlarni ham sahnalashtirish va uni o'sib kelayotgan yosh

¹ "Ўзбекистонда театр санъатини ривожлантириш тўғриси"даги фармони Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 26 март.

² "Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари" Каримов И. Т., Ўзбекистон 1997 й. 137 б.

avlodga havola etish kerak. “Tarixsiz kelajak yo’q” deb ta’kidlagan edilar Prezident Islom Karimov. Sahnalashtirilgan mumtoz asarlar bir qatorda buyuk shoir va allomalar haqida yosh tomoshabinni ma’lum ma’noda kengroq tanishtirish mumkin.

Muxtaram Prezidentimiz I.A.Karimov “Biz o’z iste’dodli, fidoiy bolalarimizga, farzandlarimizga bilim va kasb cho’qqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak” deb ta’kidlagan edi.

Bugungi kunda respublikamizda muhim ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy o’zgarishlar sodir bo’ldi. «Ta’lim» to’g’risidagi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta’limni demokratiyalashtirish, insonparvarlashtirish induviduallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olish tamoillari asosida barcha o’quv predmetlari bo’yicha shu jumladan musiqa fanini o’qitish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Avvalo darslarning muayyan mavzulari har bir chorak uchun belgilangan bosh mavzulardan kelib chiqadi va darslar davomida musiqaning muayyan ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Dars jarayonida musiqa tinglash. Ashula aytish, musiqa savodi mashg’ulotlari musiqa darsining mustaqil qismi emas, balki dars mavzusini ochib beruvchi musiqa faoliyati sifatida qabul etiladi. Qolaversa dars mavzusini qiziqarli bo’lishi va ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida va musiqali ritmik harakatlar, chapak cholish, bolalar uchun cholg’u asboblari, shiqqildoq, doiracha, qochiq va boshqa asboblarning musiqaga jo’r bo’lishi hamda musiqa ijodkorlarligi kabi faoliyatlari qo’llaniladi.

Ma’lumki bizning diyor azaldan yuksak madaniyat va ma’naviyat maskani sifatida olamga mashhur. Respublikamiz mustaqillikka erishgach bu azaliy qadriyatlarni ya’na tiklash, boy merosimizning asl manba’larini o’rganish, ular bilan keljak avlodni oshno qilishga intilish kuchayib ketdi.

Ma’naviy qadriyatlarimiz qatoriga musiqa alohida o’rin tutadi. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan qadimiy kuy va qo’shiqlar ajdodlarimiz ma’naviy hayotidan dalolat beruvchi ruhiy omildir. Ota-bobolarimiz musiqa insonni kamolotga undovchi kuch deb bilganlar. Eng ta’sirli va eng ommaviy ma’naviy ozuqa vositasi sifatiga musiqaga yuksak ijtimoiy maqom berilgan.

Davlat ahamiyatiga molik tarbiya vositasi darajasida bo'lgan musiqa doimo diqqat markazida bo'lgan.

Odamzod hayotining doimiy hamrohi bo'lgan va uning ,a'naviy dunyosini to'ldirib, doimo ezgulik va poklikka chorlagan ilohiy qudrat musiqa san'ati o'zbek xalqining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, ko'ngil quvvati, ruh saodatidir.

Bu abadiy haqiqatni, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har qaysi ona o'z farzandiga aytadigan alla ohanglarida, inson zotining har qanday holatda – yorug' va quvonchli kunlarda ham, boshida musibat tushguvchi qayg'uli lahzalarda ham musiqaning mo'jizakor kuchidan madad va tashkil topishida ko'rish mumkin.

Ayniqsa, xalqlar va madaniyatlar tobora yaqinlashayotgan hozirgi davrida, shiddatkor taraqqiyot asrida, shu bilan birga, sayyoramizning turli burchaklarida yozuv kuchlar o'z qabih niyatlarini amalga oshirishga urinayotgan bir sharoitda, yer yuzida hayotni asrash, odamlarni ezgulik va bag'rikenglikka da'vat etishda madaniyat va san'at, xususan musiqa dunyosining ta'siri beqiyos ekani barchamizga yaxshi ayon.

Ana shu musiqa san'atining ajralmas janri opera, o'zbek kompozitorlari tomonidan ijod qilinib yosh avlodni musiqiy didini dunyoqarashini va musiqiy ohanglarni sirlarini tushunib olishlariga tarbiyalaydi.

Opera – musiqiy san'atning eng yirik janri hisoblanadi. Operaning tuzilishi uning g'oyaviy maqsadida syujet xarakteriga, libretto (musiqaviy dramaturgiya vositalari) ning senariyasiga va asosiy muallif kompozitorning badiiy pronsiplariga bog'liq.

Musiqiy san'atning alohida katta yo'nalishlaridan biri bo'linish operaning yoshlar idrokini tarbiyalashdagi muammolarni nazarda tutib o'z malakaviy bitiruv ish mavzusining «O'zbek kompozitorlarining opera asarlarida musiqiy idrokni rivojlantirish shakllari» deb nomladim va ish davomida ana shu muammolarga ko'proq e'tiborimni qaratishga harakat qildim.

Ko'zga ko'ringan kompozitor pedagog, dirijyor, jamoat arbobi, xalq artisti. Pedagogika fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi D.V.Kabalevskiy bunday deb

yozgan edi: «Musika darslari o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi: o'quvchilarni katta musika san'atiga, uning sirli dunyosiga olib kirish ularni musika va uning boy janrlarini birgalikda sevishtirish hamda o'quvchilarda musika madaniyatini ulardagi ma'naviy madaniyatini bir qismi sifatida tarbiyalashdan iboratdir».

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Auditoriyadan tashqari musika mashg'ulotlarida xalq merosidan unumli foydalanish albatta ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Auditoriyadan tashqari musika mashg'ulotlari jarayonida talabalarni ahloqiy-yestetik milliy, ma'naviy, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, musiqiy faoliyatning turli yo'nalishlari (maqom, xor, orkestr, vokal ijrochiligi, milliy cholg'ular,) orqali musiqiy ta'lim samaradorligini takomillashtirish bo'yicha reapiublikamizda anchagina ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bunga I.Qudratov H. Nurmatov, B. Azimov, Q. Mamirov, A. Hasanov, B. Fayziyev, D. Jamolov, D. Saipova, R. Tursunovlarni tadqiqot ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin. O'zbek xalq musika san'atining badiiy-yestetik ta'lim-tarbiya doirasida o'rganilishi holatini yaxshilash, bu borada muayyan samaradorlikka yerishish, mumtoz musika asarlarining inson ruhiyatiga ta'siri kabi masalalarni o'rganishga D.Omonullayev, R.tursunov, A.Nazarov, M.Ismoilova, A.R.Baxriyev, D.M.Mullajonov, D.Djalilova kabi pedagogic san'ashunos olimlarning ilmiy tadqiqotlarida salmoqli o'rin ajratilgan. Zamonaviy o'zbek musiqashunosligi masalalari pedagogic-san'ashunos olimlar – R.Abdullayev, D.M.Mullajonov, O. Ibragimov, X. K.Ruzmetova, L.YU.Aksakalovalar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida batafsil yoritilgan. Auditoriyadan tashqari musika mashg'ulotlari bo'yicha I. Razzoqov, O. Ro'ziyeva, N. Tolliboyevlar dissertatsiya ishlarida ma'lum darajada yoritib bergan. Bularning barchasi biz tomonimizdan tanlangan mavzuni mustaqil tadqiqot muammo sifatida o'rganilganligini ko'rsatadi va mazkur tadqiqot mavzusini dolzarb pedagogic muammo sifatida ye'tibor yetish imkonini beradi.

Har qanday mamlakatning kelajagi milliy kadrlarning intellektual salohiyati, malakalari va kasbiy mahorati, ma'naviy yetukligi va tarixiy xotirasining

mustahkamligiga bog'liq bo'ladi. Auditoriyadan tashqari musiqa mashg'ulotlarida xalqimizning milliy musiqiy merosi yosh avlodni ilm-fan, adabiyot va madaniyat sohalarida ulkan muvoffaqiyatlarga yerishishida mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti: Lisey va kollejlarning auditoriyadan tashqari ommaviy musiqa mashg'ulotlari, musiqiy to'garaklar. Ilmiy tadqiqot obyekti: 1-son pedagogika kolleji talabalari

Tadqiqot predmeti: Auditoriyadan tashqari to'garak mashg'ulotlari orqali talabalarining ahloqiy-yestetik bilimlarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni va metodikasi. Auditoriyadan tashqari to'garak mashg'ulotlarini samarali tashkil yetish usul va vositalari

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Auditoriyadan tashqari to'garak mashg'ulotlari orqali talaba yoshlarni o'zbek xalq og'zaki ijodini o'rganish va talaba yoshlarni auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarga qiziqtirish, ularni mashg'ulotlarga jalb yetish, nazariy va uslubiy asoslarini o'rganish. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar orqali dars samaradorligini oshirish.

Bitiruv madakaviy ishning vazifasi

Birinchidan, auditoriyadan tashqari musiqa mashg'ulotlari D T S va o'quv dasturi talablariga to'liq javob berishi lizim.

Ikkinchidan, auditoriyadan tashqari musiqa mashg'ulotlarining to'garak shakllarini o'rganish, ularning mazmuni va mohiyatini yoritish, ularning ta'lim jarayonidagi xususiyatlarini belgilab berish.

Uchinchidan, auditoriyadan tashqari musiqa mashg'ulotlari xalq qo'shiqlaridan foydalanish va ularni ta'limga keng joriy yetishning dolzarbligini belgilovchi omillarni ko'rib chiqish; ularni samarali amalga oshirishning pedagogic shart – sharoitlarini ifodalash; ajdodlarimiz merosini zamonaviy ta'lim texnologiyasi bilan bog'lash; buning istiqbolini asoslash.

To'rtinchidan, hal qilishishi lozim bo'ladigan muammolarni ajratib ko'rsatish, ommaviy to'garak mashg'ulotlari orqali talabalarining qiziqishini oshirishga xizmat qiluvchi usullardan foydalanish;

Beshinchidan, auditoriyadan tashqari musiqa mashg'ulotlari jarayonida talabalarning ahloqiy-yestetik shakllantirishga ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot metodi: Pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil, anketa, savol-javob, suhbat, kuzatish, analitik obraz, pedagogic tajriba –sinov, matematik statistika. Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari va ma'ruzalarida bayon qilingan ta'limni isloh qilish, talabalarda ma'naviy-ahloqiy madaniyatni shakllantirishga oid yondashuvlar, sharq mutaffakkirlarining asarlarida ma'naviy-ahloqiy tushunchalar haqidagi qarashlar, ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Xalq ta'limi vazirligining buyruqlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik manbalar.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar:

1. Auditoriyadan tashqari musiqa mashg'ulotlar orqali talabalarni ahloqiy-yestetik ruhda tarbiyalashga yo'naltirilgan faoliyat mazmuni.
2. Auditoriyadan tashqari musiqa mashg'ulotlari orqali talabalarning ahloqiy-yestetik tarbiyalashning ilmiy-amaliy asoslari (shakl, uslub va vositalari).
3. Auditoriyadan tashqari musiqa mashg'ulotlari maktab talabalarida musiqiy-nazariy bilimlarni shakllantirishga tayyorgarlik darajalarini belgilovchi mezonlar.
4. Auditoriyadan tashqari musiqa mashg'ulotlari orqali talabalarni ma'naviy-ahloqiy shakllantirish jarayonining samaradorlik darajasi.

O'quvchi- yoshlarni ahloqiy-yestetik shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil yesa – ta'lim – tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqot natijalarining ilmiy – amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijasi "Musiqa madaniyati" fani auditoriyadan tashqari musiqa mashg'ulotlari vositasida talabalarni ma'naviy ahloqiy shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar hamda ilmiy

metodik tavsiyalar bilan boyitildi. Shuningdek, “Musika madaniyati” dasturi darsliklariga kiritiladigan auditoriyadan tashqari musiqa mashg’ulotlari izchil tizimda belgilab berildi.

Musika darslarida auditoriyadan tashqari musiqa mashg’ulotlari orqali talabalarni ma’naviy- ahloqiy shakllantirishning mazmuni, shakli, metodlari, hamda psixologik va pedagogic yo’llari tizimini aniqlab berildi. Tadqiqot natijalaridan Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun dastur yaratuvchi mutaxxassislar keng foydalanishlari mumkin. Shuningdek, musiqiy ta’lim fakultetlari, o’qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida ma’ruzalar matni sifatida tadqiqot materyallaridan qo’llaniladi.

Ishning sinovdan o’tishi. Maskur tadqiqot ishi A.Navoiy nomli Samarqand Davlat U niversiteti “Musika o’qitish metodikasi va xalq cholg’u asboblari” kafedrasi yig’ilishlarida, bakalavrlarning ilmiy semenarlarida muhokama qilingan. Tadqiqot ishi kafedrada bo’lib o’tadigan ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruzalar shaklida yelon qilingan.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish Kirish qismi: 2-bob, oltita paragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalaniladigan adabiyotlar ruyhati, ilovalardan iborat bo’lib, umumiy hajmi --- betni tashkil yetadi.

I Bob. Opera san'ati inson tafakkuri yuksak namunalaridan biri.

1.1. Musiqali drama spektakllari orqali yosh avlod ma'naviy dunyosini boyitish.

Musiqali drama janri yosh avlod ma'naviy dunyosini boyituvchi vosita sifatida.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning 2001-yil 30-avgustda Toshkent shahrida O'zbek davlat akademik drama teatri yangi binosining ochilishi marosimida so'zlagan nutqi.

Assalomu alaykum, aziz do'stlar!

Muhtaram san atkorlar!

Qadrli mehmonlar!

Avvalo, barchangizni bugungi unutilmas kun — azim poytaxtimiz Toshkent shahrida ushbu ajoyib san at saroyi — O'zbek davlat akademik drama teatrimizning yangi binosi ochilishi munosabati bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Hurmatli birodarlar!

Bugun yurtimizdagi eng ulug' va eng aziz bayram arafasida mana shu betakror, muhtasham, zamonaviy teatr koshonasi san at muxlislari uchun o'z eshiklarini ochayotgani g'oyat quvonchlidir.

Bunday go'zal saroyning taqdimot marosimida ishtirok etishning o'zi har qanday odamni ham quvontirib, uning ko'ngliga xush kayfiyat, yorug'lik bag'ishlaydi, desam, o'ylaymanki, barchangiz bu fikrga qo'shilasiz. O'zingiz bilasiz, o'zbekiston rahbari sifatida mening ko'p-ko'p xalqaro miqyosdagi katta anjumanlarda, mahobati bilan ko'zni qamashtiradigan saroylarda, imperatorlar, qirol va podshohlarning qasrlarida, bugungi zamonning eng chiroyli, boy va hashamatli binolarida bo'lishimga, u joylarda nutq so'zlashimga, muloqotlarda ishtirok etishimga to'g'ri keladi.

Lekin men mana shu daqiqalarda qalbidan bir hayajon kechirayotganimni sizlarga ochiq aytishim kerak.

Bu hayajonning sababi shundaki, o'zbek madaniyatining ko'zgusi bo'lgan mana shu akademik teatrimiz sahnasida Mannon Uyg'ur, yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov, Olim Xo'jaev, Sora Eshonto'raeva, Nabi Rahimov, Obid Jalilov, Zaynab Sadrieva, Toshxo'ja Xo'jaev, Aleksandr Ginzburg, G'ani Azamov singari ne-ne buyuk san at namoyondalarining qutlug' izlari qolgan, ovozlari yangragan, ularning o'lmas ruhi bugun ham shu dargohda kezib yuribdi. Necha yillar davomida o'zining beqiyos san ati va mahorati, klassik asarlarning betakror ijrosi bilan bu teatr nafaqat milliy san atimiz muxlislarini, balki dunyodagi manaman degan teatrlarning mashhur rejissor va aktyorlarini, insonni o'ylantiradigan murakkab savollarga teatr ibрати orqali javob topishini istayman. Sizlar o'zbek teatr san atimizning eng yaxshi an alarini asrab-avaylab, rivojlantirib, kelajak avlodlarga yetkazasiz, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi yetuk asarlaringiz bilan xalqimiz madaniyatini yanada yuksaltirishga munosib hissa qo'shasiz, deb ishonaman.

Barchangizga tilagim shuki, sizlar sahnada betakror obrazlar yaratib, xalqimiz mehriga sazovor bo'lishdan charchamang, bizga esa ajoyib mahoratingizga qoyil qolib, san atingizni olqishlab, sizlarga mana shunday hurmat-ehtirom, izzat-ikrom ko'rsatib yurish nasib etaversin.

Hayot haqida, inson umrining ma no-mazmuni haqida teatr ixlosmandlari bilan qizg'in va jonli muloqotingiz davom etadigan, yurtimiz, millatimiz dovrug'ini tarannum qiladigan bu muazzam ijod maskani avvalo sizlarga, barcha san atkorlarimizga buyursin, ezgulik va go'zallikni yuksak qadrlaydigan tomoshabinlarga, butun xalqimizga muborak bo'lsin.

Fursatdan foydalanib, ushbu madanivat qasrini bunyod etgan qo'li gul quruvchilarimizga, me moru muxandislarimizga, bu oliyjanob ishda qatnashgan barcha yurtdoshlarimizgi o'z nomidan, butun san at muxlislari nomidan samimiy minnatdorlik izhor etaman.

Mana shu unutilmas daqiqalarda barchangizni Vatanimiz istiqlolining 10 yillik qutlug' to'yi bilan yana bir bor tabriklayman.

Sizlarga yangi-yangi ijodiy yutuqlar, sihat-salomatlik, xonadonlaringizga baxtu saodat tilayman. Ilhomiflgiz, iste dodingiz yanada ziyoda bo'lsin, hamisha muxlislaringiz, xalqimiz ardog'ida bo'ling.

Qadimgi o'zbek teatrining repertuari va xarakteri. Tarixiy sharoit va madaniy muhit. Qadimgi o'zbek teatrining repertuari va xarakteri. O'zbek aktyorlik san'atini o'ziga xos xususiyatlari va uning badiiy mahorat darajasi. O'zbek teatrining g'oyaviy estetik asoslari.

O'zbek teatr san'atida o'zbek aktyorlik san'atining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek qo'shiqchilari, yallachilari, sozandalari va o'yinchilari hamda aktyorlari haqida.

Temuriylar davrida o'zbek milliy san'ati. Amir Temur va Temuriy shoxlar davrida Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan, ma'rifat gullab yashnagan. O'zbek milliy teatrining negizi qadimiy bayramlar, qiziqchilik, qo'g'irchoqbozlik, teatrlashgan tomoshalar, marosimlar, maydon namoyishlari, an'anaviy teatr raqs san'ati hamda tsirk o'yinlari haqida.

O'zbek milliy an'anaviy tomoshalari, namoyishlari, milliy madaniy merosning muhim bir turi sifatida qarab, kelajakda undan unumli foydalanganliklari haqida.

XVII-XIX asr boshlarida o'zbek teatri. Buxoro xonligi teatr san'ati, Xorazm xonligi teatr san'ati, Qo'qon xonligi teatr san'ati, hamda o'sha davrning va xonliklardagi aktyorlik san'ati haqida.

Turkistonda rus teatri faoliyati. Rossiya tomonidan O'rta Osiyoni bosib olinishi, rus va yangi ozarbayjon, yangi tatar teatrlarini Turkistonga kirib kelishi va o'sha yerli ziyolilar orasida ushbu san'atga qiziqishning kuchayishi.

Turkistonda teatr binolarini qurilishi, rus teatrini yangi o'zbek teatriga ta'siri. Turkiston xududida xalq an'anaviy tomoshalarning ahvoli va yangi o'zbek teatrining targ'ibotchilari ekanligi to'g'risida. Ahmad Donish, Furqat.

Ovro'pa usulidagi teatrning Turkistonga kirib kelishi va uning hozirgi zamon o'zbek milliy teatr shakllanishiga ta'siri. Turkistonda rus, ozarbayjon, tatar,

arman teatr aloqalarini boshlanishi va uning yangi o'zbek teatri barpo topishidagi o'rni.

O'zbek teatr va dramaturgiyasining dastlabki qadami. O'zbek teatr sahnasida o'zbek yozma dramaturgiyasining vujudga kelishi va sahna yuzini ko'rishi, hamda dastlabki qadamlari.

Toshkentda «Turon» truppasining ochilishi va uning yangi o'zbek teatrining shakllanishi. Birinchi o'zbek milliy teatr truppasi Turon teatrining tashkil topishi 1913 yilning oxirida. Truppa rahbari Abdulla Avloniy va uning faoliyati. Turon truppasining nizomi va uning davlat adliya idoralari tomonidan tasdiqlanishi hamda uning o'lka teatrchilik harakatlaridagi o'rni. 1914-18 yillarda turon teatrining faoliyati va repertuari. 1916 yildan e'tiboran truppaga Mannon Uyg'ur kirib kelishi.

O'zbek teatr tanqidchiligini boshlanishi va yangi o'zbek teatrining shakllanishi. Yangi o'zbek teatri sahnasida 1914 yilning 27 fevralida M.Behbudiyning «Padarkush» asari «Kolizey» teatri binosida qo'yiladi. Spektaklni Ali Asqar Asqarov sahnalashtiradi. 1914 yil Nusratilla Qudratilloning «To'y» p yesasini ko'rsatilishi «Istanbul», «Badbaxt kelin», «Baxtsiz kuyov», «Zaxarli hayot» va boshqa p yesalarning sahnalashtirilishi. Spektakl rejissyorlari va aktyorlari.

O'zbekistonda jadidlar harakati va o'zbek milliy teatri. Jadidlarning Turkiston matbuoti sahifasida yangi o'zbek teatrini targ'ib etishlari, M.Behbudiyning «Padarkush» (1911), Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy «Advokatlik osonmi?» (1914), Nusratilla Qudratillo «To'y» (1914), Xoji Mu'in Shukrullo «Eski maktab yangi maktab», «Mazluma xotin», «Ko'knori» (1916), Abdullo Qodiriy «Baxtsiz kuyov» (1914), Hamza «Zaxarli hayot» (1915) p yesalari.

Mahmudxo'ja Behbudiyning Samarqand yaqinidagi Baxshiyona qishlog'ida ruhoniylar oilasida tug'ilgan. Avval u eski maktabda, so'ng madrasada tahsil ko'radi va XX asrning boshlaridan jo'shqin ma rifatparvar sifatida ko'rini boshlaydi. Yangi usuldagi maktablar ochadi, darsliklar yaratadi, gazeta va jurnallar chop

ettirib, o'zga xalqlar ilg'or tajribalarini o'zlashtirish, zamonaviy bilimni egallash haqida ko'plab maqolalar e'lon qiladi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning milliy g'oya, erkinlik ideallarini targ'ib etishda eng ommabop hisoblanmish milliy teatr san'atini barpo etish dasturi bilan maydonga chiqishi ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'ldi. U o'zi noshir va muharrir bo'lgan «Oyna» jurnali orqali teatr san'atini uzluksiz ravishda targ'ib etadi. «Teatr nador?», «Turkistonda birinchi milliy teatr», «Teatr, musiqa, she'r» kabi maqolalari bilan O'zbekistonda teatr tanqidchiligini boshlab berganlardan biri bo'ldi. Uning tashabbusi va davlati bilan Nusratillo Qudratullo, Hoji Muin Shukrullo, Abdulla Badriy kabi yosh adiblar dramaturgiyaga kirib keladilar. Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zi esa «Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi» (1911) p'esasini yaratish bilan ko'plab yosh ziyolilarga namuna ko'rsatdi.

U zulm va jaholatga qarshi ayovsiz kurash olib bordi. 1919-yili erkinlik dushmanlari qo'lida vahshiylarcha o'ldirildi. Mahmudxo'ja Behbudi teatr haqida teatr — ibratnomadur... Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'zlaguvchi va ochiq haqiqatni bildiruvchidir... Umumiy odatlarni nafi va zararidan paydo bo'laturg'on natijalarni teatrxonada aynan ko'rsaturlarki, har kim mundan ta sirlanib, yomon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg'a sabab bo'lur... teyotr xonalari masxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadur, mushaxxis-aktyor muallimi axloqdurlar.

M.Behbudiyning «Padarkush» birinchi o'zbek yozma asari va uni sahnalashtirish. Birinchi Samarqandda so'ng Toshkentda, Qo'qon, Kattaqo'rg'on, Buxoro, Andijon, Namangan shaharlarida sahnalashtirilgan. «Padarkush» p'yesasi avvalo milliy dramaturgiya va yangi teatr san'atining ilk namunasi bo'lsa, ikkinchidan o'sha shaharlarda nisbatan muntazam va muvafaqqat teatr tashkil topishi. O'zbek yozma milliy dramaturgiyaning shitoblanishi. «Padarkush» asari Turkiston voqeligining XX asr 10-yillaridagi buyuk madaniy va ijtimoiy voqealaridan bo'lib qolishi.

«Turon» teatr truppasi – birinchi o'zbek professional teatr jamoyasi va uning nizomi. Birinchi o'zbek milliy teatr truppasi – «Turon» teatri 1913 yilning oxirida

Toshkentda Turon oqartuv jamiyati qoshida havaskorlar truppasi tashkil topishi. Truppa rahbari Abdulla Avloniy va uning faoliyati. «Turon» truppasining nizomi va uning davlat adliya idoralari tomonidan tasdiqlanishi, hamda uning o'lkada teatrchilik harakatlaridagi o'rni. 1914-1918 yillar orasida Turon teatri faoliyati va repertuari. Spektakl rejissyorlari va aktyorlar. Turon truppasi 1918 yil 3 noyabrda Davlat teatri sifatida ochilishi. 1918-1920 yillar orasida teatr repertuari. Turon teatr truppasining 1918-1924 yillar orasida havaskorlikdan milliy professional Davlat teatri darajasiga ko'tarilishi, hamda Turkistonda teatr san'atining yetakchi kuchiga aylanishi.

Ozarbayjon va tatar teatrlarining Turkistondagi ijodiy safarlari va ularning o'zbek milliy teatrlari shakllanishidagi o'rni. Ozarbayjon, turk, tatar, hamda rus teatri dramaturgiyasi, ijodiy safarlari o'zbek teatrining shakllanishida bosh omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbek teatrining rivojida 1915-1916 yillar sahnalashtirilgan qator tarjima asarlari katta ijobiy ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, bu masalada ozarbayjon dramaturgiyasi muhim rol o'ynaydi.

H.H.Niyoziy va o'zbek teatri. H.H.Niyoziy va o'zbek milliy teatri. H.H.Niyoziyning ma'rifatchilik borasidagi faoliyati, uning dramaturgiyadagi ijodiy faoliyati va teatr sohasidagi harakatlari. «Boy ila xizmatchi», «Zaxarli hayot», «Maysaraning ishi» asarlari.

Mannon Uyg'ur birinchi o'zbek professional rejissyori. Mannon Uyg'ur o'zbek sahna san'atini kamol topishi yo'lida serqirra faoliyati. Mannon Uyg'ur va Turon truppasida professional jarayonining shakllanishi a) milliy repertuarini yaratish uchun kurash yo'lida teatrning ijodiy laboratoriyaga aylanishi; Mannon Uyg'ur 20 yildan e'tiboran teatr repertuarida katta hajmdagi tomoshabinni jalb etuvchi spektakllarining ko'payishi; b) Mannon Uyg'ur va truppada zamonaviy rejissurani vujudga kelishi; v) aktyor talqin san'ati; truppada Mannon Uyg'ur boshliq barcha aktyorlarning truppani yetakchi ijrochilariga aylanishi.

1917-20 yillar teatr o'lkada musiqali drammatik truppasi Farg'ona vodiysi, Buxoro, Xorazm teatri. Karl Marks nomli teatr. O'lkada «Namuna» teatri. O'zbek I-II teatr studiyalari Moskvada, Bakuda. Turon, Namuna 1924 yildan O'zbek Davlat

sayyor truppasi nomi bilan ish yuritgan respublika teatri. Uning sahna ustalari Moskva, Bakudan qaytgan O'zbek Davlat drammatik truppasi nomi bilan qayta tashkil topishi. Qayta tashkil topgan teatr repertuarini Revizor, Xasis, Malikai Turandot, Yorqinoy singari spektakllar bilan boyishi.

O'zbek milliy teatri XX asrning 20-30 yillarida. 20 yillarning oxiri va 30 yillarning boshlaridan e'tiboran adabiyot va san'atda sho'ro voqealigini sinfiy kurash, sinfiy va partiyaviy xushyorlik, mamlakatni sanoatlashtirish va qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish nuqtai nazaridan yoritishni asosiy talab qilib qo'yilishini o'tkirlashuvi. P yesalarda o'tmish va bugungi hayot muammolarining baxsi.

Hamza nomidagi O'zbek Davlat drama teatri, hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatri. Hamza nomidagi teatrn o'zbek dramaturgiyasi o'zbek jonli adabiy tilining markaziga aylanganligi xususida.

30 yillarning boshlaridan e'tiboran davlat teatr tizimlarining qayta tashkil etilishi. Markaziy davlat teatlari: Hamza nomidagi o'zbek davlat drama teatri (1933 yildan e'tiboran akademik drama teatri), O'zbek davlat musiqali teatri (1939 yildan e'tiboran o'zbek davlat opera va balet teatri), M.Gor kiy nomidagi rus davlat drama teatri, respublika yosh tomoshabinlar teatri, respublika o'zbek davlat qo'g'irchoq teatri (1939). Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali drama va komediya teatri (1939-40 yillar).

O'zbekistonda opera va balet teatrlarini shakllanishi va rivojlanishi. Ushbu murakkab san'at turlarini asoslari, ularning ijodiy faoliyatlari, madaniy hayotimizdagi o'rni haqida o'zbek operasi va baleti rivojlanishi haqida. M.Qori Yoqubov, H.Nosirova, S.Yarashov, K.Zokirov, M.Razzoqova, G.Izmailova, B.Qorieva, G.Hamraeva – o'zbek milliy opera va balet san'ati darg'alari.

O'zbekistonda bolalar va yoshlar teatri va boshqa millat teatlari. Asosan 1 - Turon teatri sahnasida drama, musiqali teatr, bolalar teatri shakllarining shakllanishi va 1928-1930 yillar oralig'ida davlat drama, o'zbek davlat musiqali teatr va o'zbek davlat bolalar teatrga ajralib rivojlanishiga yuz tutishi.

Viloyat teatrlari o'zbek milliy teatrlarining ajralmas qismi. 20 yillarda O'zbekistonda teatr san'atining faol shakllanishi munosabati bilan 30 yillarning boshlaridan e'tiboran viloyat teatrlarini qayta tashkil etish, tur va janrlarini aniqlash jarayoni, Farg'ona vodiysi, Andijon, Farg'ona, Namangan, Qo'qon, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxandaryo, Xorazm, Qoraqalpog'iston teatri.

O'zbek teatri ikkinchi jahon urushi yillarida (1945-41 yillar). Ikkinchi jahon urushining boshlanishi, hamma narsa front uchun shiori va Vatan himoyasi muammolarini adabiyot va san'atning bosh mavzusiga aylanishi. Mavzuning ikki jihati: front, front orti hayoti. Har bir xalq tarixining yorqin sahifalari – bosqinchilarga qarshi, yurt mustaqilligi, ozodligi kurashda jon fido etgan yorqin tarixiy siymolarni namunali badiiy obrazini yaratish san'atni, jumladan teatrning etakchi vazifasi qilib belgilanishi.

O'zbek teatri o'zining chuqur ildizlari orqali xalq sa'nati sifatida alohida o'rinni egallaydi. Musiqiy sahnalar o'zbek kompozitorlarining ijodiyotida o'ziga xos xususiyatlari bilan muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

Kino, teatr, Estrada – bu san'at yo'nalishlari xalq orasida ommaviy san'at janrlari deb hisoblanib bu jamoa mehnati juda ko'p tinglovchilar auditoriyasini o'ziga jalb etdi. Mashhur zamonaviy kompozitor T.N.Xrennikov o'z fikrini quyidagicha bayon etgan - Biz o'z Vatanimiz musiqiy san'atini rivojlantirishimiz kerak, bu xalq durdonasini kengaytirishimiz va ko'p sonli ommaga yetkazishimiz lozim. Ana shu so'zlar ma'nosida musiqali teatr, spektakllari kiritilib bu janrga alohida e'tibor berishi to'g'risida so'z yuritilgan.

O'zbekistonda musiqali drama teatrlari ko'p yillar davomida o'zbek bastakorlari va kompozitorlarining ijodiyotlarida alohida diqqatga sazovor bo'lgan. Hali Alisher Navoiy davrlaridan boshlab o'zbek xalqi badiiy so'zga, musiqaga, raqs san'atiga ixlosmand bo'lib, o'zbek xalqi orasidan yetishib chiqqan san'atlarga alohida hurmat bilan qaraganlar. Masxarabozlarning chiqishlarida, qiziqchilar va qo'g'irchoq o'yinchilari o'z namoishlaridan xalq kuy va qo'shiqlaridan foydalanib o'z sahnalarini musiqiy asarlar bilan yana ham jozibali va sermazmun etganlar.

O'zbek dramaturglari Hamza, mammon Uyg'un, G'ulom zafariylar ham o'z oddiy spektakllarida asta sekinlik bilan murakkablikga intilib ana shu janrni yuqori darajada ko'tarishga muvaffaq bo'lganlar. Ya'ni oddiy-oddiy spektakllar vositalari bilan musiqali drama asarlari orqali opera janrigacha yetkazilgan. Shu tariqada S.Vasilenka va M.Ashrafiyning birinchi o'zbek operasi «Bo'ron» vujudga kelgan. O'zbek teatri Hamza tashkil qilgan kichik havaskorlik to'garakidan (1918-1918 yillar) katta ijodiy yo'llarini bosib o'tib, xalq an'alariga asoslanib, hozirgi davrdan ko'zga tashlanadigan va xalq e'zozlaydigan san'at saroylariga aylanganlar.

Yillar o'tgach musiqali drama o'zbek musiqa teatrining yetakchi janriga aylandi. Bu janr o'zgarishsiz qolmadi: u rivojlandi, yangi mazmun, yangi musiqali teatr vositalari bilan boyidi. Teatr o'z repertuarida afsonaviy syujetli («Farhod va Shirin», «layli va Majnun») spektakllarni saqlagan holda teatr zamonaviy mavzularga murojaat qildi. Masalan qishloq xo'jaligini rivojlantirish, yangi hayot uchun kurash masalalari keskin bo'lgan yillarga bag'ishlangan «O'rtoqlar», «O'tdan parchalar», «Po'rtana» musiqali spektaklari paydo bo'ldi. Bular o'zbek musiqali teatri sahnasida zamonaviy mavzuni tasvirlashda lirikchi tajriba bo'lib yoshlarni mehnatga paxta hosilini yig'ib-terishga undaydigan musiqali spektakllar jumlasiga kiradi. Lekin bu spektakllarga qator nuxsonlar bo'lgani uchun sahnadan tezda tushib ketdi.

Biz necha yillar davomida «Farhod va Shirin», «Gulyora» musiqali spektakllari ancha e'tibor qozondilar. «Farhod va Shirin» musiqali spektakli respublikamizning ko'pgina teatrlari sahnalarida namoyish qilinaverdi. Bu spektakl Alisher Navoiyning shu nomli dostoni asosida sahna yuzini ko'rdi. Asar mazmunida yovuz kuchlar bilan tongsiz janda halok bo'lgan, lekin o'layotganda ham ular o'z tuyg'u va sadoqatiga sodiq qolgan xitoy shahzodasi Farhod bilan Armon shohining qizi Shirin orasidagi sevgi haqida hikoya qilinadi.

Yosh avlodni tarbiyalashda Farhod obrazi timsolida Alisher Navoiy mukammal yirik obraz darajasida ko'tariladi.

Farhod bolalaik chog'idayoq ijobiy xislatlarga ega bo'ladi. U juda aqlli, zehnli, bola bo'lib o'sadi. Farhod zo'r havas bilan o'qiydi, tabiyat, matematika, logika (mantiq) va boshqa fanlarni o'rganadi, ko'p o'tmay bir qator ilmlarni egallab, o'z qobiliyati va malakalarini oshiradi. Farhod aqliy tarbiya bilangina cheklanib qolmasdan, jismoniy va harbiy mashqlar bilan ham shug'ullanib chiniqa boshlaydi. Suvda suzish, chavandozlik, qilichbozlik va boshqalar uning kundalik mashg'uloti bo'lib qoladi. Farhod 10 yoshida unda 20 yashar yigitning kuch-quvvati bo'ladi. U o'zining aqli va kuch-quvvati, mahorati bilan kishilarni hayratda qoldiradi.

Farhod nihoyatda kamtar kishi. Shahzodalik otasining mol-davlati uni mahliyo qilmaydi.

U o'zini oddiy kishilarning biri deb hisoblaydi va mazlum xalqni chin ko'ngildan sevadi. Farhod mazlumlarning dardiga malham bo'lishga intilar, xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yar edi. Shuning uchun ham xalq Farhodni sevadi, uning dard alamidan qayg'uradi, shodligi bilan quvonadi.

Farhod voyaga yetgan sari o'z ishlaridan qanoatlantirmaydigan bo'la boshlaydi. U qandaydir ulug' ishlarga bosh bo'lish, kishilarning baxti yo'lida ko'proq xizmat qilishga intiladi.

Hoqon o'g'lini xursand qilish uchun unga toj-taxtini tashkil etadi. Lekin Farhodni toj-taxt qiziqtirmas edi. U shuncha ilmi va hunarga ega bo'lishiga qaramay hali o'zini yetarli tajriba va malakaga ega deb hisoblamas, davlatni idora etish uchun katta tajriba va tadbirkorlik lozim deb bilar edi.

Shunday qilib Farhod dastlab bilimli, hunarli ijodkor kishi bo'lib etishadi. U ilm va hunarni hayot bilan bog'laydi. Kishi o'z ilmi va hunarning ommaning manfaatiga xizmat ettirishi lozim deb hisoblaydi.

«Hunarni asrabon netkumdur oxir, olib tufroqqamu ketkumdur oxir» deb xalqga yordam beradi, ularga bosh bo'lib ishlab mo'jjizalar ko'rsatadi. Farhod bilimi va hunarini ishga solib, minglarcha kishilarning mehnati va mashaqatini chigillashtiradi. Uning mehnat faoliyati va qobiliyati ayniqsa hovuz qozish va kanal ochish ishlarida kamol topadi.

Farhod misilsiz xalqparvar va Vatanparvar inson edi. U doimo yurtning obodonchiligi va xalqning farovonligi uchun kurashadi. O'zi binokorlik qiladi. Tog'-tosh kezadi, insonning har qanday yovuz kuchlariga qarshi kurashadi.

Misol: «Farhod va Shirin» musiqali dramasidan «Farhodni sharaflash xori va suv ochish sahnasi».



Maktab o'quvchilarini tarbiyalashda musiqiy spektakllar vositalari bilan Farhodga o'xshagan mard, jasur, botir o'g'lonlar bo'lib etishiga undaydigan qasrlar katta ahamiyatga ega bo'lmog'i lozim.

1.2. Opera janrining o'zbek kompozitorlari ijodiyotida tutgan o'rni.

O'zbek operasi, turmush sharoitlariga ko'ra, zamon talablari asosida, asta-sekinlik bilan musiqali drama ildizida o'z rivojini topdi. Birinchi o'zbek operasi 1930 yillarning oxirlarida vujudga keladi. O'zbekiston musiqa san'atining rivojlanishida rus musiqa madaniyatining alohida hissasi borligini kompozitorlar V.A.Uspenskiy, R.M.Gliyer, A.Kozlovskiy, G.Mushel va boshqalar o'zbek musiqa san'atining turli janrlarida ijod qilinganliklari sababli yana ham boyigan.

Opera so'zi nima? Opera janri o'zi nimalardan iborat? Opera bu lotin tilidan olingan bo'lib – mahsulot asar ma'nolarini bildiradi. Operaning adabiy tahlili – libretto bo'lib, avvalo vokal musiqa shakllarida gavdalantiradi. Opera vokal solo ansambl, xor va cholg'u (simfonik) musiqa, dramaturgiya, xoreografiya (raqs

sahnalari), tasviri san'at (dekloratsiya, kostyum va boshqalar) ni o'z ichiga oladi. Lekin musiqa ular orasida yetakchi o'rin egallaydi. Yakkaxonlar nomerlari (ariya, arioso, qo'shiq, monolog, kavatini), regitativ ansambllar (duet, tertset, kvartetlar), xor sahnalari, raqslar orkestr nomlari (uvertyura, anrtaktlar) opera musiqasining asosiy shakllaridir. Barcha vokal nomer (sahna)lar va regitativlar kuylanadi, hajviy operalardan ko'pincha regitativ o'rniga dialog (so'zlashuvdan) foydalaniladi. Operada voqealar, qahramonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlari orzu umidlari va umuman, badiiy g'oya musiqaviy talqin (rechitativ, kuylash, cholg'u musiqa orqali) qilinadi. Operaning tuzilishi uning g'oyaviy maqsadiga, syujet xarakteriga, librettoning senariyasiga va asosiy muallif kompozitorning badiiy prinsiplariga bog'liqdir.

Operaning alohida turi sifatida Uyg'onish davri (XVI – sar oxirida) Florensiya (Italiya) da yuzaga keldi. «Dabna», «Evridika» (1598 – 1600 yillar) asarlari opera san'atining ilk namunalaridir. Keyinchalik opera san'ati boshqa mamlakatlarga taqrladi.

Taraqqiyot davrida operaning turli janrlari paydo bo'ldi: epik qahramonlik, tarixiy (hayotiy, romantic, qahramonlik) lirik afsonaviy dramatic satiric operalar: italiyancha opera – seriya (jiddiy opera), opera –buff (hajviy opera); fransuzcha grand opera (katta opera), hajviy va lirik operalar; nemis va avstriycha zingshpil; ispancha sarsulka va tonadilya; inglizcha ballada operasi, musiqali drama, opera balet va boshqalar. G'arbiy Yevropa opera san'atining yirik namoyandalari H.Skorlatti, Z.Pergoleri, D.Chimarozzi, J.Rossini, J.Verdi, G.Berlioz, B.Motsart, R.Vagner, R.Shtraus, B.Smetana, J.Gershvin va boshqalar.

Opera Rossiyada XVIII asrning II –yarmida vujudga keldi. Rus klassik operasining ravnaqi rus milliy musiqa maktabining taraqqiyoti bilan bog'liq. Rus opera san'atiga M.I.Glinka asos solgan. Rus operalari ichida «Ivan Susanin», «Ruslan va Lyudmila», «Suvparisi», «Boris Godunov», «Xovanshina», «Knyaz v gore», «Qorqiz», «Sadko», «Pikovaya dama», «Oltin xo'rozcha», «Yevgeniy Onegin» va boshqalar diqqatga sazovordir. XIX asrning ikkinchi yarmida

Ukrainaga gruzincha, armancha, ozarbayjoncha, latishcha va boshqa qardosh xalqlar operalari ijod qilinadi.

O'zbekistonda opera janri yuqorida aytib o'tilganimizdek musiqali dramasi asosida rus va chet el klassik operasining ta'sirida yuzaga keladi. 1939 yilda S.Vasilinko va Muxtor Ashrafiyning «Bo'ron» operasi sahnalashtirilgan. Dastlabki o'zbek operalari o'zbek va rus kompozitorlarning ijodiy hamkorligi natijasida yuzaga kelgan hamda O'zbekistonda ijod qilingan rus kompozitorlarining mahalliy mavzudagi ijodida rivoj topgan. Masalan: R.Glier va T.Sodiqovlarning «Layli va Majnun», «Gulsara», S.Vasilenko va Muxtor Ashrafiyning «Bo'ron» va «Ulug' kanal», B.Zeydan, Yu.Rajabiy, D.Zokirovlarning «Zaynab va Omon» va boshqa hamkorlik operalari. Keyinchalik o'zbek kompozitorlarning afsonaviy romantik, tarixiy, lirik, zamonaviy mavzulardagi mustaqil operalari paydo bo'ldi.

Muxtor Ashrafiyning «Dilorom», «Shoir qalbi», Rashid Hamroyevning «Zulmatdan ziyo», «No'malum kishi», S.Bobyevning «Hamza» va bolalar uchun yozilgan «Yoriltosh», H.Raximovning «Zafar», birinchi o'zbek hajviy operasi S.Yudakovning «Maysaraning ishi» bo'lib bu hajviy opera bir necha qardosh respublikalar shu jumladan Moskvada ham sahnalashtirilgan.

Operada sahnaviy kompozisiya sifatida badiiy obrazning mavjudligi boshqa obrazlar bilan hamnafaslikda namoyon bo'ladi. Obrazlar tizimida dramatism namoyon bo'ladi, obrazlar to'qnashuvi natijasida nizo vujudga keladi. Obrazlarning o'zaro munosabati opera dramaturgiyasining rivojlanishini ta'minlaydi. Faqatgina boshqa qahramonlar bilan munosabatdagina operaning bosh qahramoni o'zini haqiqiy dramatik obraz sifatida his qiladi. Qahramonlarning murakkab munosabatlarida operadagi syujet qirralarining butun murakkab ruhiy qarama-qarshiliklari ochib beriladi.

Karmen va Xoze, Violetta va Alfred, Turandot va Kalaf va boshqa ko'pgina juft obrazlar qarama-qarshi tomonlarni ifodalaydi. Shunga qaramasdan ular bir-biri bilan shunchalik bog'liqki, ularni alohida ko'rib chiqib bo'lmaydi. Har bir obraz qirrasini, ularning shaxsiy dramatik mazmunini ochib beruvchi muhitdan ajratib

bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadiki opera asosini obrazli tizim tashkil etib, unda har bir qahramon boshqa obrazlar singari asarning ajralmas qismini tashkil etadi.

Tizim tuzilishining asosiy belgisi ichki mutanosiblikning bo'ysunishi hisoblanadi. Operada bu asosiy harakatlanuvchi kuch hisoblangan bosh qahramonning atrofida voqyea mujassamlashuvida namoyon bo'ladi. Bosh qahramon obrazi odatda juda murakkab va rang-barangdir. Asarda hech bir voqyea bosh qahramonning ishtirokisiz o'tmaydi. Boshqa barcha ishtirokchilar esa voqyealar va ohang dramaturgiyasi uzluksizligiga asoslangan ichki jiplashish tamoyili asosida jarayonga jalb etiladi. P.Chaykovskiyning «Yevgeniy Onegin» operasida Tatyana, M.Musorgskiyning «Boris Godunov» operasida Boris, J.Puchchinining «Turandot» operasida Turandot, A.Petrovning «Petr I» operasida Petr I, M.Burhonovning «Alisher Navoiy» operasida Navoiy, S.Yudakovning «Maysaraning ishi» operasida Maysara kabi bosh qahramonlar mana shunday obrazlarga misol bo'la oladi. Bosh qahramon atrofida birlashgan obrazlar qarama-qarshi kuchlarni aniqlab beruvchi obrazli tuzilmani tashkil etadi. Va asosan kontrast taqqoslash yoki nizoli to'qnashuv xarakterini o'zida namoyon etadi. Bu hol ko'p qatlamli yoki ko'p vazifali kompozisiya orqali ham namoyish etilishi mumkin. Operada asosiy g'oyani ochib berishga yo'naltirilgan turli obrazli muhitlar o'zaro mutanosiblashadi. Musiqiy obrazli muhitning intonasion to'qnashuvi orqali dramatik nizoning ifodalanishi operada o'zaro bog'langan obrazlar tizimini tashkil etadi. Uning asosida ma'lum obrazlar guruhi zimmasiga yuklatilgan kontrast mavzuiy manba' yotadi.


Musiqiy matnning qarama-qarshi obrazlar to'qnashuvi tamoyili doirasida chegaralash – dramaturg-kompozitorning asosiy vazifasi hisoblanadi. Musiqiy obrazlar, mavzularning asosiy dramatik kuchlar atrofida guruhlanishi operalarda syujet mazmuni xususiyatlari, kompozitorning estetik tamoyillariga muvofiq holda har xil amalga oshiriladi. Masalan, «Rigoletto»da musiqiy obrazlarning asosiy dramaturgik kuchlari atrofida guruhlanishi J.Verdi tomondan aniq o'ylangan va jamlagan holda amalga oshirilgan. M.Musorgskiyning «Boris Godunov» va

«Xovanhina» operalarida turli ijtimoiy guruhlar obrazlari yorqin va kontrastli namoyish etilgan.

Mavzu va badiiy jihatdan saviyasi turlicha bo'lgan o'zbek operalarini tomoshbinlar tomonidan ham turlicha qabul qilishdi. Ba'zilar sahnadan tez tushub ketdi, boshqalari esa teatr repertuaridan muhim o'rin egalladi. Biz shulardan ahamiyatliroqlarini ajratib «Gulsara» operasi haqida so'zlaymiz.

Gulsara operasi avvalari yozilgan shu nomli musiqali drama singari o'zbek ayollarining ozodlikka chiqishi mavzusiga bag'ishlangan. Albatta «Gulsara» operasi avvalgi musiqali drama asariga nisbatan boshqacharoq qabul qilindi. (oradan bir necha yillar o'tgan). Vahshiyona mataassublik ham, paraji tashlagani uchun qonli o'ch olish ham uzoq o'tmishga qolib ketgan edi. Lekin eski ideologiya e'tiqodlari, xususan ayollarga nisbatan boy – feodallargacha munosabat hali hayotda uchrab turadi. Shuning uchun ularga qarshi kurash o'z keskinligi yuqotmagan edi. Ko'pgina o'zbek ayollarining hayoti kurashi, orzulari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan Gulsaraning taqdiri tomoshabinlar qalbiga aksadosini topar edi. «Gulsaraning» ommabopligi, hayotiyliigi ham shundadir.

Libretto yozganlar K.Yashin bilan, M.Muhammedovlar yaxlit, izchil rivojlangan voqeani yaratishga muvoffaq bo'lganlar. Ayniqsa bosh qahramon obrazi to'laqonli chiqqan. Operaning boshlanishida u zaif, itoatkor, ongida ayolni gullarga itoatkor bo'lishga mahkim qilgan eski musulmon aqidalari ustunlik qiladi. Lekin asta-sekin, chuqur javoblar tufayli Gulsara o'tmish sarqidalariga qarshi ochiq, shiddatli kurashish zarurligini aniqlaydi. Opera asosiga T.Jalilov yig'ib olgan musiqali dramadagi kuy va ohanglar kirgan. Lekin T.Sodiqov va R.Glier tomonidan qayta ishlagan kuylar va yangi partituralar ham oz emas. Ba'zi bir ariya va ansamblarning kuylari yetakchi musiqa temalari darajasiga ko'tarilgan. Operaga leytmativ (kuyni olib boruvchi) va leytema kabi muhim elementlar ham kiritilgan. Bosh qahramon Gulsara va Qodirning, partiyalari ashula xarakteridagi kuylarga asoslangan. Ba'zi ariyalar milliy fol'klorning ayol namunalaridir. Bu borada Qodirning ariyasi (to'rtinchi pardadagi) iliq qalbga yaqin, ifodali kuyi ibratlidir.



«Gulsara»-da mualliflarning musiqali obrazlarining individuallashtirishga intilish sezilib turadi. Opera dramaturgiyasi elementlari paydo bo'ladi. Lekin bu tendensiya hamma vaqt ham bilinavermaydi. Barcha kamchiliklarga qaramasdan, o'zbek musiqa san'atida yangi janr, milliy o'zbek operasining ijod qilinishi va operaning postanovkasi katta madaniy ahamiyatga moyillik voqea bo'lgan edi va yoshlar tarbiyasida alohida o'rinni egallaydi.

Navbatdagi opera bu A.Navoiyning «Sabbai sayyora» dostoni mavzusida yozilgan «Dilorom» operasidir. Opera ijodkorlari kompozitor M.Ashrafiy, librettochilar K.Yashin va M.Muhammedov operaning bosh qahramoni rassom Moniy va Sozanda ajoyib ovozga ega Dilorom bir-birlarini sevadilar, lekin go'zal changchini sotib olgan va Moniyni zindonga tashlaysan. Shoh Bahrom sevishtganlar baxtini paymol qiladi.

Musiqada qahramonlarning ishq o'ramasi o'zining to'liq ifodasini topgan. Bosh qahramonlar milliy merosning noyob namunalari vositasida ifodalangan. Masalan Moniy xarakteristikasiga qadimiy lirik kuylardan «Karim-qulbegi» muhim ahamiyatga ega. Moniyning har bir chiqishiga mazkur kuy yangrab qahramon leyttomasiga ko'tarilgan.

Diloromning musiqali partiyasi ham shu emotsiya doirasida tuzilgan. Diloromning «Qal yonar» ariyasi «Jonim mening» romansi, Bahrom kasriga tushgan Dilorom qayg'usini ifodalovchi musiqa paymol etilgan. Sevgi haqidagi mungli qo'shig'I buni tasdiqlaydi.

Oxirgi yillar davomidagi ijodiy mehnatlar shundan dalolat beradiki, o'zbek operasi rivojiga kelajak sari katta qadam tashlagan. Mavzu kengaydi, janrlar

doirasi boyidi va yosh avlodni musiqiy qobiliyatlarini va musiqiy madaniyatini kengaytirishda muhim vazifalar bajaradi.

1.3. Opera janri orqali maktab o'quvchilarining jahon musiqa madaniyati haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

Opera janrining o'zi nima?

Opera so'zi nimani bildiradi?

Operadagi musiqalar qaysi yo'nalishda?

Opera so'zi lotincha bo'lib – mahsulot asar ma'nolarini bildiradi. Opera musiqali dramatik san'at janri operaning adabiy tekisti libretto musiqaviy dramaturgiya vositalari bilan avvalo, vokal musiqa shakllaridan gavdalantiriladi. Opera vokal (solo, ansambl, xor) va cholg'u (simfonik) musiqa dramaturgiya, tasviriy san'at (dekoratsiya, kostyum va boshqalar) xoreografiya (raqs sahnalari) ni o'z ichiga oladi. Lekin musiqa ular orasida yetakchi o'rin egallaydi. Yakkaxon nomerlari (ariya, arioz, qo'shiq, monolog, kavatina), rechitativ ansambllar (duet, tertsiya, kvartetlar), xor sahnalari, raqslar orkestr nomerlari (uvertyura, antraktlar) opera musiqasining asosiy shakllaridir. Operada voqealar, qahramonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlari, orzu umidlari va umuman badiiy g'oya musiqaviy talqin qilinadi.

Opera – sahnada ko'rsatiladigan yirik asardir. Bunday asar to'rt xil san'at turi qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bular: musiqa san'ati, teatr san'ati, raqs san'ati va rassomchilik san'ati. Musiqa san'ati operada asosiy o'rinni egallaydi. Chunki opera asari voqealari bosh qahramonlarining ichki kechinmalari asosiy kuylash va simfonik orkestrning ijrosi orqali tasvirlanadi. Har bir xonanda sahna mahoratiga ega bo'lishi zarur. Ulardan aktyor bo'lish talab qilinadi. Operada raqs nomerlari ham bo'ladi. Rassomchilik san'ati esa bezashga, dekoratsiyalar tayyorlash uchun zarur.

Opera asari kompozitor tomonidan tarixiy voqealar, ertak va afsonalar yoki yozuvchi va shoirlarning asarlari asosida yaratiladi. Opera musiqasi yaratilishidan avval uning adabiy matni yoziladi. Bu matn biror shoir tomonidan yoziladi va *libretto* deb ataladi. Opera tomoshasi bir necha bo'lim (parda)dan iborat bo'ladi.

Har bir parda sahnalar va ko`rinsihlardan iborat. Opera musiqa nomerlardan iborat. Nomerlar besh xil bo`ladi.

Yakka nomerlar (ariya, monolog, qo`shiq, romans va x.k.).

Ansabml nomerlari (duet, trio, kvartet, kvintet x.k.).

Xor nomerlari.

Raqs nomerlari.

Orkestr nomerlari.

Opera tomoshasi orkestr ijro etadigan kuy uvertyura bilan boshlanadi. Uvertyura musiqasi operaning mazmunini aks ettiradi. Opera asari mazmuniga qarab kulgili yoki fojeali bo`ladi. Buni uvertyurani eshitish payqash mumkin.

Birinchi opera 1594 yilda Italiyaning Florensiya shahrida yaratildi. Uning muallifi kompozitor J.Peri va shoir O.Rinuchinni edilar. Qadimgi grek tragediyasi opera asarining yaratilishiga asos bo`ldi. Qadimgi grek tratediyasida musiqa ham ishlatilar edi. Peri musiqaning rolini oshirgan holda teatr asarini yaratish mumkin, degan fikrni ilgari surdi. Italida kuylash san`ati nihoyatda rivojlangani uchun yangi asarda barcha voqealar, dialoglar kuylash vositasi orqali tomoshabinga yetkaziladigan bo`ldi. Shu tariqa 1594 – yilda qadimgi grek afsonaso asosida olk “Dafna” operasi yaratildi. Bu operaning musiqasi bizgacha yetib kelmagan. 1600 – yilda shu mualiflar tomonidan “Evridika” nomli opera yaratildi. Bu asar musiqasi bizgacha yetib kelgan. Florensiyada yaratilgan opera janri asta – sekin Italiyaning boshqa shaharlarida ham rivojlandi. Rim, Venetsiya, Mantuya, Neopol shaharlarida opera san`ati jeda tez sur`atlarda rivojlandi. Opera teatrlari qurildi. Opera janri yangi vositalar bilan boyitildi va mukammallashtirildi. Keyinchalik opera boshqa Yevropa mamlakatlariga ham tarqaldi.

Opera qahramonlarini tasvirlashga xos musiqiy ifodaviy vositalarning mazmunli va shaxsiy xarakterli vazifasi Dargomijskiyning fikricha «xarakterlarni musiqiy tasvirlash»ni tashkil etadi. Nutq qahramonlar xarakterini, ularning ichki va tashqi olami ko`rinishini hosil qilsa, operada vokal partiya qahramonlarning his-tuyg`ularini ifodalaydi. Obrazning ichki mohiyatini intonasion muhit ochib beradi.

Operaning to'rtinchi ko'rinishidagi Karmen va Xozening duet sahnasi ham diqqatga sazovor. U qahramonlarning ikkovi uchun ham fojiali yakunlangan so'nggi uchrashuvni o'zida namoyon etadi. Xoze Karmenni haliyam sevadi va uning sevgisini qaytarishga harakat qiladi. Xozening qalbidagi dramasi chuqur his-tuyg'ular bilan boyitilgan sahnada ochib berilgan. Uning hayajonli va kuychan partiyasi ikkinchi ko'rinishdagi sevgi ariozolariga yaqin bo'lgan ohanglar bilan to'ldirilgan. Ularda sevgi va iltijo ifodalangan. Lekin Xoze Karmenning umuman bo'ysunmaydigan, qat'iy va mag'rur javobini eshitadi. Bu sahnada Karmenning rechitativlari ancha ifodaviydir. Karmenning bo'ysunmasligi, mag'rurligi, erkinlikni sevuvchi tabiati o'lim oldidagi qo'rquvdan ham ustun turadi.

Yakunlovchi sahnaning oxirgi bosqichi keskin dinamika va dramatizm bilan sug'orilgan. Xoze va Karmenning so'zlari qisqaradi, ularning dialogi yanada keskinlashadi. Sirk hayotidagi kabi shovqin-suron holatlari kiritiladi. Karmenning «Erkinman, erkin bo'lib o'laman» degan so'zi sirkdan eshitalayotgan g'alaba fanfaralari va marsh musiqasi fonida yangraydi. Turli qarama-qarshi ohanglarning birlashuvi tinglovchiga katta ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim dramatik omilga aylanadi. Operada ohang dramaturgiyasi katta murakkablik va ko'pqatlamligi bilan xarakterlanadi. U ham musiqiy, ham dramatik qonuniyatlar bilan belgilanadi. Qahramonlarning obrazli tavsiloti bilan uzviy bog'liq holda ohang dramaturgiyasi musiqiy spektakl omilini aniqlab beruvchi sintetik yaxlitlikning muhim qismini tashkil etadi.

V.Mosartning «Don Juan» operasining ohang dramaturgiyasi yorqin va o'ziga xosdir. Abadiy mavzuga murojaat qilgan holda kompozitor opera musiqasini keskin va qarama-qarshi dinamika bilan to'ldiradi. «Don Juan» syujetining mohiyati – to'qnashuvlardan tashkil topadi. Bu asarni kompozitorning o'zi hajviy fojea deb atagan. Ikkita qarama-qarshi muhit – Don Juan va qasd oluvchilar nafaqat bir-birini ta'qib etadi, balki umumiy xususiyatlarni ham o'zlarida mujassamlaydi. Don Juan haqidagi afsonani Komandorsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, Komandorning o'zi ham zid obrazdir. Bu ikki obrazning o'zaro hamjihatligi operaga yuqori falsafiy ma'no baxsh etadi. Inson taqdirini hal qiluvchi

zarba g'oyasi opera mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatgan. «Don Juan» operasining janr xususiyati o'ziga xos bo'lib, fojiviy va hajviy asosni birlashtiradi. Bu ikki to'qnashuv operaning musiqiy dramaturgiyasida o'z aksini topdi. U Don Juan va uning atrofiga jalb etilgan qahramonlar bilan bog'liq bayramona kayfiyat hamda hayotdagi fojiviy holatlarning qarama-qarshi qo'yilishiga asoslangan. Tabiiyki operaning intonasion dramaturgiyasi ham kontrastlikka ega. Bu kontrastlik juda aniq ifodalangan bo'lib, kirish qismidagi uvertyuradayoq keng ochib berilgan. Uvertyurada Komandor va Don Juanning «Shampan bilan» ariyasi bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan. Ularning operadagi holatlari va dramaturgiyada bayon etilishi har xildir.

Komandor obrazi operani boshlab beradi va dinamizasiyalashgan hamda ishlab chiqilgan holda asarga yakun yasaydi. Komandor operaning introduksiyasida va oxirida ikki marta paydo bo'ladi. Lekin uning drama rivojiga ta'siri bu bilan cheklanib qolmaydi. Uning ohangli tavsiloti qasd oluvchilar obrazlarida, avvalambor Donna Anna obrazida o'ziga xos va yorqin ifodasini topadi. Shu tariqa Komandor obrazi bilan bog'liq bo'lgan ishtirokchilar tavsiloti yagona ohang muhiti bilan bog'lanadi.

Don Juan bilan bog'liq muhit esa umuman boshqa ko'rinishni tashkil etadi. Uning umumlashgan ifodaviy qiyofasi birinchi ko'rinishning «Shampan bilan» ariyasida namoyon bo'ladi. Unda operaning boshqa lavhalarida tarqoq bo'lgan va uning asta sekin paydo bo'lishini tayyorlagan barcha ohang elementlari mujassamlashgan. Bu ohang muhitlari ariyada yorqin avjga erishadi. Bu Don Juan muhitiga o'ziga xos drammatizm va egiluvchanlikni baxsh etib, Komandorning bir me'yordagi va o'zgarmas qiyofasiga qarama-qarshi qo'yiladi.

Operaning bosh qahramonlari – Grigoriy Gryaznoy va Lyubasha ularning ohang tavsilotlarida ifodalangan qarama-qarshi tuyg'ular kuchi bilan qamrab olingan. Grigoriy obrazi operaning boshida orkestrda asosiy leytmavzui orqali tasvirlanadi. U uch tonli harakatlardan iborat bo'lgan bo'lingan melodik mavzuni o'zida namoyon etadi. Leytmavzuning ohang aylanmalari keyinchalik turli ritmik va melodik ko'rinishlarda rivojlanadi. To'rtinchi ko'rinishdagi Kvintetda

Grigoriyning leytmavzui katta rol o'ynaydi. Grigoriyning Marfa bilan xayrlashuv lavhasida alohida yo'nalishga erishadi. Operada Lyubashaning ohang doirasi keng va rang-barang ochib berilgan. N.Rimskiy-Korsakov torli cholg'ularning baland registrdagi tremololari fonida orkestrda asta-sekin pastga yo'naluvchi harakatni qo'llaydi. Lyubashaning birinchi paydo bo'lishida berilgan bu tavsilot tasviriy ahamiyat kasb etadi. U mehmonlar oldiga o'z xonasidan chiqib keladi. Lyubashaning bu asosiy leytmavzui keyinchalik Grigoriy bilan bo'lgan duetda, birinchi ko'rinishning oltinchi sahnasidagi ariozoda muhim ruhiy mazmunni kasb etadi. Operaning musiqiy dramaturgiyasida birinchi ko'rinishning to'rtinchi pardasidagi Lyubashaning solo qo'shig'i muhim rol o'ynaydi. U qat'iy diatonik tuzilmada bayon etilgan bo'lib chuqur qayg'u bilan ijro etilgan. Keyinchalik bu qo'shiq ohanglari ikkinchi ko'rinishning uchinchi va to'rtinchi sahnalari orasidagi orkestr intermediyasida jadal rivojlanib boradi. Orkestr ijrosida bu kuy qotib qolgan taassurotni shakllantirib, yanada noilojlik holati vujudga keladi. Qo'shiq ohanglari Lyubashaning ikkinchi ko'rinishidagi ariyasiga singib borib hayajonli dramatik xarakterni kasb etadi. Lyubashaning ohang doirasida orttirilgan sekunda va uchtonlikka bo'lgan harakatlar qo'llanilgan bo'lib, uning so'zlariga qiynalganlik alomatlarini baxsh etadi.

Operada rivojlanish tamoyillari. Opera murakkab san'at asari sifatida musiqa, so'z va sahna dramaturgiyasining muhim qismlarini o'zida mujassamlaydi. Unda musiqa mazmuni teatr vositalari yordamida ochib beriladi. Ko'rinadigan obrazlar eshitish bilan uzviy bog'lanadi, sahnaviy harakat musiqa bilan chambarchas bog'liqdir. Musiqiy va dramatik elementlarning o'zaro bog'liqligi opera dramaturgiyasining mohiyatini tashkil etadi. Operada musiqa va dramatik she'riyat orasida ko'pgina umumiy uslublar mavjud. Ilk italyan operalaridayoq kompozitorlarning musiqiy dramaturgiyaning dramatik san'at an'analari bilan yaqinlashtiruvchi uslublarini topishga bo'lgan intilishlari seziladi. Ayniqsa bunda K.Montervedining hissasi kattadir. U dramatik va musiqiy boshlanishni opera dramaturgiyasining asosini tashkil etuvchi yangi sintezda birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Opera san'atining tarixiy jarayonida yagona

musiqiy va dramatik ko'rinishning buzilishi holatida opera reformasiga bo'lgan talab yuzaga keladi. Opera janrining buyuk reformatorlari qatorida K.Monteverdidan keyin K.Glyuk, V.Mosart, J.Verdi, R.Vagner nomlarini aytib o'tish joizdir. Ular opera janri mohiyatini chuqur anglab yetgan holda musiqa va dramaning organik umumiylikiga erisha oldilar.

Opera san'atning o'ta shartli turidir. Opera dramaturgiyasining ifodaviy vositalari ham shartlidir. Lekin, aynan mana shu shartlilik sharofati bilan tinglovchi-tomoshabin obrazning jonlilikini qabul qiladi, sahnada bo'lib o'tayotgan voqyealarni hayotiy kabi qabul qiladi. Opera dramaturgining mohirligi spektaklda inson hayotini yaratib bera olishida namoyon bo'ladi. Opera teatrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu sahnaning shartlilikidir. U uchta bosqich bilan belgilanib, ba'zida unda ko'pgina qahramonlarni mujassamlash qiyin bo'ladi. Lekin tinglovchi-tomoshabin bu shartlilikni qabul qiladi. Spektakl o'zining badiiy yechimi bilan ishontira olsa tomoshabin badiiy o'ylab topilgan hamda haqiqiy hayot orasidagi keskin chegarani sezmaydi. Chunki operaning hayotiylikini dekorasiyaning shartlilik va sahna maydoni emas, balki musiqiy obraz va uni ifodalovchi vositalar ta'minlab beradi.

Operaning yana bir boshqa muhim shartlilik – asarda vaqtning qat'iy chegaralanganligi hisoblanadi. Bosh qahramonlarning kunlar, oylar, hattoki yillari qandaydir 2-3 soat ichida ixchamlashadi. Ifodalanuvchi voqyea va xarakterdan qat'iy nazar operada syujet mazmunini tadbiq etish 2-3 soat bilan chegaralanadi. Opera san'ati tarixida sahnaviy holat bu vaqt doirasiga sig'maydigan misollar ham bor. R.Vagnerning «Nibelunglar uzugi», S.Prokofevning «Urush va tinchlik», K.Shtokgauzenning «Svet» («Nur») operalari bunga misol bo'la oladi. D.Miyoning kichik hajmdagi operalarini ham misol keltirishimiz mumkin.

Opera san'atida hayajonli ta'sir etish doirasi sahnaviy drama janrlariga nisbatan kengroq bo'lib, bunga san'atning sintezi sharofati bilan erishiladi.

Opera aktyorining so'zlari, o'yini va musiqasi mutanosibli kompozitorga alohida sahnalar, lavhalar va ariyalarni mujassamlagan holda yechishga imkon yaratadi. Opera serqirra janr sifatida boy badiiy imkoniyatlari bilan betakror

original ijodni o'zida namoyon etib, insonni ichki dunyosining nozik qirralarini tasvirlash qobiliyatiga ega bo'lgan va hayotning diqqatga sazovor ko'rinishlarini musiqiy obrazda umumlashtiruvchi katta jalb etuvchi kuchga ega. Uzluksiz harakatlanish opera voqyealarini birlashtiruvchi va ravon rivojinini ta'minlovchi muhim uslublaridan hisoblanadi.

Operada qahramonlar va ularning guruhlar drama voqyeasining uzluksiz rivojinini ta'minlaydi. Kompozitorning vazifasi – voqyeaning ravon ketma-ketligini yaratishdan iborat. Bunda tinglovchilarning diqqatini jalb qilgan holda qahramonlar xarakterlarini yorqin ifoda eta olish, shu orqali tinglovchilarga asar g'oyasini, muallifning asosiy fikrini yetkazib berish lozim.

XVII asrni musiqa madaniyati tarixining ma'lum pillapoyasi sifatida qabul qilish mumkin: asrlar davomida to'plangan ijod namunalari unda mujassamlandi hamda musiqa san'atining ko'pgina yangi tur va janrlarni boshladi. Aynan XVII asrda dunyoviy va cherkov professional musiqasining bir – biridan ajratish jarayoni tugadi hamda operaning tug'ilishiga imkon topildi.

Italiya operasi. Renessans (Uyg'onish) davri san'ati gullab yashnagan va o'zining ajoyib hosilini bergan italiya opera vataniga aylandi. Bu janrning ildizlari davrlar tubida yotadi, uning muayyan unsurlari san'atning turli – dunyoviy va diniy, xalq va professional qatlamlai tarkibida uzoq va asta – sekin yetilib keldi. Operaning bevosita paydo bo'lishidan oldin yetralicha rivojlangan dunyoviy musiqa an'analari, keng tarqalgan pastoral musiqa – teatr janri, qo'shilgan kuchli qiziqish, XVI asrning faol musiqiy hayoti mavjud edi. O'zining boy va badiiy madaniyati bilan shuhrat qozongan Florensiya operaning ilk o'choqlaridan bo'ldi Florensiya maktabi. Shoir, sozanda, olim va san'at shonavandalarining to'garagi (camerata) tarixiy dovruqqa ega bo'ldi, uni florensiyalik metsenat Giovanni vardi va uning do'sti Yakopo Korsi boshqardi. Ushbu to'garakda yangi musiqiy – dramatik janrning asosini tashkil qiluvchi estetik nizomlar, ba'zi tamoyillar birinchi marta shakllantirildi.

Birinchi, Peri, Kachchini. Ottavio Rinuchchini (tassoning o'quvchisi, 1562 - 1621), sozandalar Yakpo Peri (1561 – 1633) va Julio Kachchini (1548 - 1618)

Florensiya operasining asoschilari bo'ldilar. Rinuchining matni va Perining (qisman Korsining ham) musiqasi bilan (tarixan) birinchi opera “Dafna” 1594 –yil Florensiyada Korsining uyida qo'yildi. U yangi to'ldirish va o'zgarishlar bilan bir necha marta ijro etilardi. Afsuski, “Dafna”ning partiturasini saqlanib qolmagan.

Bizgacha yetib kelgan birinchi Florensiya operasi “Evridika” bo'ldi, u Orfey haqidagi antik afsona syujetiga yozilgan edi. Fransiya qaroli Genrix IV ning Mariya medichi nokoh to'yiga bag'ishlab yozilgan “Evridika” operasi 1600 – yilda qo'yildi. Uning mualliflari – shoir Ottavio Rinuchchini va kompozitor Yakopo Peri. Operaga bag'ishlovda Peri shunday deydi: “oddiy nutqqa nisbatan yuksakroq, so'zlar bo'yicha ishlab chiqarilgan, biroq sof kuyga nisbatan noaniqroq bo'lgan, u bilan buning o'rtasidagi kuylashni izladim”. Florensiya operasida qo'shiq sahnada joylashgan, uncha katta bo'lmagan cholg'u ansamblining jo'rligida ijro etilardi. Uvertura odatda bo'lmagan. Truba fanarlari diqqatni o'ziga tortib, tomosha boshlanishidan darak berardi.

Rim maktabi. Ilkb italyan operasining yana bir markazi Rim edi. Bu shaharda opera teatri tashkil qilishda Rim papasi Urban VIII bilan yaqin qarindosh bo'lgan barberining oilasi tashabbus ko'rsatdi. Uch aka – uka Barbernilarning ikkitasi kardinal lavozimida edi; ularning safdoshi kardinal Rospiliozi – bo'lajak papa Kliment IX, qator operalar matnining muallifi efi. Katolitsizmning qasri bo'lmish Rimda, opera o'zining paydo bo'lishidan boshlab ochiq tarzda ifodalangan klerikal xarakterga ega ekanligi ajablanarli emas.

Rim opera maktabining sujetlarida xristian dinining g'oyalari, albatta, nasihatlar bilan targ'ib qilinar edi: dunyoviy hayotning lazzatlariga uchgan qalb do'zaxda azoblanadi, biroq gunohkorning tavba qilishi Xudoning mag'firati va abadiy rohatga olib keladi. Katolik cherkovining arboblari Ignatij Loyoha – iezuitlar ordenining asoschisi, meksikani ishg'ol qilib hindularga “Xudoning yo'lini ochib bergan” Fernando Kortets kabi arboblarning shuhrat qozonishdi.

Venetsiya maktabi. XVII asr o'rtalariga kelib opera san'atining markazi Florensiya va Rimdan Venetsiyaga ko'chdi.

Yevropadagi eng boy savdogar va tadbirkor shahri Venetsiya XVII asrda Gollandiya va Angliyaning ayovsiz raqobatiga uchradi. Uning oldingi qudrati tobora soʻnib, dengiz ortidagi savdosi susayib borardi. Venetsiya respublikasining inqirozi oldidan aqliy hayotning keskinlashuvi kuzatildi. Koʻp sonli falsafiy va abadiy – badiiy akademiyalar ijtimoiy fikr markazlari sifatida xizmat qilib, jamiyat didini boshqardi.

Turli xarakterdagi va koʻp millatli, shovqin – suron post shahrining oʻziga xos turmush tarzi oʻz navbatida uning madaniyatiga, badiiy hayot tarziga oʻz taʼsirini oʻtkazar edi.

Birinchi ommaviy opera teatri 1637 – yili San – Kasiyano shahrida ochildi. Bu muassasaning mislsiz muvaffaqiyati boshqa teatrlarning ochilishiga turtki boʻldi. Venetsiyada bir yoʻla sakkiz opera teatri ishlagan davrlar ham boʻldi va teatr mavsumining qisqaligiga qaramasdan yiliga bir nechtalab asarlar qoʻyishga ulgurishar edi.

Neapol matkabi. XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Italiya musiqa teatri tarixidagi yetakchilik neapolitan operasiga oʻtadi. Neapol kompozitorlari ishlab chiqqan opera dramaturgiyasining tamoyillari universal boʻlib, bu bilan Neapol operasi Italiya seria – operasining umummilliy turidan ajralib chiqadi. Neapol koʻp vaqtlar musiqa madaniyatining markazi hisoblandi. XVI asrdayoq Neapolda toʻrtta konservatoriya faoliyat koʻrsatardi. Dunyoviy musiqaning jadal rivojlanishi, XVII asrda opera teatrlarining paydo boʻlishi, ushbu muassasalarning faolligini yanada oshirdi.

Fransuz operasi. XVII asrning ikkinchi yarmi – fransuz absolutizmi rivojlanishidagi eng yuqori avj nuqta boʻldi. Fransuz monarxiyasini mustahkamlash harakati maʼlum bosqichda progressive ahamiyatga ega boʻldi, zero Fransiyaning davlat sifatida birlashishiga, milliy tuygʻu uygoʻtishga olib keldi. Qoʻshni mamlakatlar, ayniqsa, Italiya bilan savdo madaniy aloqalar kengayishi ijobiy natijalar berdi. Koʻplab ilm va sanʼat namoyandalari fransuz qirollarining saroylarida boshpana topdi, hatto Fransisk I homiyligida boʻlgan buyuk Leonardo da Vinchi umrining soʻnggi yillarini Fransiya oʻtkazdi.

Tarixiy taraqqiyot davomida operaning turli janrlari paydo bo'ladi: epik-qahramonlik, tarixiy, lirik, afsonaviy dramatik, satirik operalar. Shular qatorida italaiyancha opera – seriya (jiddiy opera) va opera – buffa (hajviy opera), fransuzcha grand opera (katta opera), nemis va avstriycha – zingshpil; ispancha sarsusla va tanadilya; ingliz ballada operasi, operabalet janrlari paydo bo'la boshlaydi.

G'arbiy Yevropada opera san'atining yirik namoyandalari (kompozitorlari) A.Skarletti, J.Pergolezi, D.Zumaroza, J.Rossini, J.verdi, J.Pugchini, R.Leonkovallo, G.G'.Gendel, L.Kechubini, G.Berlioz, Sh.Guno, J.Bize, X.Glyuk, V.Motsart, K.V.Veber, R.Varner, R.Shtraus, S.Monyuiko, B.Smetana, D.Dvarjak, J.J.Gershvinlar opera janrida musiqiy asarlar ijod qilganlar.

Rossiyada opera janri XVIII asrning ikkinchi yarmisida vujudga keldi. Rus operasining ravnaqi rus milliy musiqa maktabining taraqqiyoti bilan bog'liq. Rus opera san'atiga M.R.Glinka asos solgan. Rus operalari orasida M.R.Glinkaning «ivan susanin», «Ruslan va Lyudmila», A.dargomijskiyning «Rusalka» («Suvparisi») M.Musorgskiyning «Boris godunov», «Xovanshina», A.borodinning «Knyaz Igor», N.Rimskiy Korsakovning «Sadko», «Oltin xo'rozcha», P.Chaykovskiyning «Yevgeniy Onegin», «Pikovaya dama» operalari mashhurdir. XIX asrning II-yarmida qardosh xalqlar: ikraincha, ozarbayjoncha, gruzincha, armancha, latishcha operalari yaratila boshladi. Misol tariqasida «Bog'dan Xmelnisekiy», «Keto va kote», «Arshin mololan», «dauriya» va boshqa operalarni keltirish mumkin.

O'zbekistonda opera janri o'zbek musiqali dramasining rivoj asosida rus va chet el klassik musiqasining va opera janrlari ta'sirida yuzaga keldi. 1939 yil S.Vasilenko va M.Ashrafiyning «Bo'ron» operasi sahnalashtirilgan. Dastlabki operalari o'zbek va rus kompozitorlarining ijodiy hamkorligi natijasida O'zbekistonda ijod qilgan rus kompozitorlarining mahalliy mavzudagi ijodida rivoj topgan. Masalan: R.M.Glier va T.Sodiqovlarning «Layli va Majnun», «Gulsara», A.Kozlovskiyning «Ulug'bek», S.Vasilenko va M.ashrafiyning «Ulug' kanal» operalari keyinchalik o'zbek kompozitorlarining afsonaviy – romantik, tarixiy

lirik, zamonaviy mavzularidagi mustaqil operalari paydo bo'ldi. Muxtor Ashrafiyning «Dilorom», «Shoir qalbi», R.Hamrayevning «Zulmatdan ziyo», «No'malum kishi», Sobir Boboyevning «Hamza», «Yoriltosh» (bolalar operasi). X.Raximovning «Zabar» va boshqalar. Birinchi hajviy o'zbek operasi «Maysaraning ishi», Sulaymon Yudakov tomonidan ijod qilindi. Bu opera qardosh respublikalar teatrlari sahnalarida va Moskva teatri sahnasiga qo'yildi.

Ana shu opera asarlari va musiqa san'ati vositalari bilan maktab o'quvchilarining har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lib, tarbiyalanishi alohida ahamiyatga egadir. Milliy musiqiy san'at-bu o'zbek xalqining, qadimdan boy ma'naviy ekanligidan darak beradi va bu xalq boyligini o'rganish o'zbek xalqining tarixini yaxshi bilishi va uni o'rganmoqdan iboratdir.

Ma'lumki, Vatanparvarlik tuyg'usi bu o'z ona diyorini va o'z xalqini ardoqlash demakdir. Shu bilan birga bu atrofdagi muhitga, o'zi tiliga, o'z madaniyatiga sodiq qolish ma'nolarini ham anglatadi. Ana shu milliy musiqa san'ati yosh avlodga Vatanparvarlik hislarini va dunyoqarashini shakllantirishga undaydi. Shu tarbiya orqali o'quvchilar dunyo san'atini o'rganishga va uni bilishga harakat qiladi.

Milliylik va baynalminallik inson hayotining asosiy ma'nolaridan biri. Shuning uchun insonlar mafkuraviy, siyosiy, ijtimoiy ekonomik va madaniy yuksalishlarga intilishlari bu tabiiydir. O'zbek milliy san'ati va bu san'at qaysi bir janr va yo'nalishda bo'lmasin – bu xalq san'ati bu san'at respublikamizda yashaydigan barcha xalqlar va elatlarni birlashtirishga, yaqinlashtirishga intiluvchi boylik hisoblanadi.

San'at asarlarini tahlil qilishda biz uni qaysi bir sharoitlarda oily dargoh talablari orasida maktab o'quvchilarining o'qish jarayonida yoki badiiy havaskorlik to'garaklarining mashg'ulotlari vaqtida ham bu san'atning xalqniki ekanligiga guvoh bo'lamiz. Chunki bu san'at asosan xalq madaniy meroslariga, musiqiy kuy va qo'shiqlarga suyanganiga guvoh bo'lamiz.

Maktab o'quvchilarining shaxsiy rivojlanishining asosiy faktorlaridan biri bu o'z ongu va shuurini yuqori darajada sezmoq, anglamoqda. Bularning barchasi

badiiy adabiyotlarning o'qishda, musiqiy asarlarni tinglashda, teatr va kino – bilimlarni tomosha qilishda o'z natijalarini ko'rsatadi. Lekin, barcha umumta'lim maktablarda ham musiqiy tarbiya vositalari bilan o'quvchilarning ongini va shuurini yuqori saviyada tarbiyalangan deb to'la taasuroga ega bo'lish mushkil. Afsuski yuqori sinf talabalarining ba'zi birlarida umumiy tushuncha ham yetarli darajada deb bo'lmaydi. Ular o'zlari bilan bir qatorda boshqa xalqlar va elatlarning san'atlari va tarixidan kam xabardorlar. Bir qancha umumta'lim maktablarda milliy musiqa san'atimizning, estetik va siyosiy – g'yaviy tarbiyamizning, vatanparvarlik va ayniqsa baynalminallik tarbiyaning to'laqonli emasligi sezilib turadi. Aksincha umumta'lim maktablarning ba'zilarida so'rovlar natijasida, anketalar to'ldirishda, pedagoglarning kuzatishlarida shu narsa bo'ladikim, tarbiyachi pedagoglarning mazmunli va sifatli dars berishlari natijasida maktab o'quvchilari ana shu yo'nalishlarda to'g'ri va qo'laqonli tarbiyaga ega bo'lganlar. Masalan: o'zbek adabiyoti darslarida o'quvchilar klassik adabiyotimizning asoschisi, ulug' mutafakkir buyuk shoir Alisher navoiyning, ijodiyotini o'zlashtirishda bu allomaning yosh avlodni tarbiyalashda tutgan o'rne, ikki buyuk xalqlarni birlashtirishda (o'zbek va tojik) xalqining qilgan mehnatlari, chin muhabbat kuychisi sifatida tengi yo'q shoir, o'z Vatanini va xalqini sevishtirishda tinib tinchimaydigan buyuk shaxs sifatida o'quvchilarga tanishtiriladi. Yosh shoir Muqimiy, Furqat va Hamzaning ijodiyotlari bilan o'quvchilarni tanishtirishda u yosh navqiron bolalarning xalq oldiga qilgan xizmatlari, ayniqsa rus tili va adabiyotini targ'ibot etishlaridagi she'rlari va musiqiy asarlari o'quvchilar tafakkuriga katta boylik manbai joylashtiradi.

Navoiy, Muqimiy, Furqat, Hamza she'rlari asosida bitilgan musiqiy san'at ham o'quvchilarga alohida kayfiyatlar bag'ishlaydi. Yoki yuqorida nomlari keltirilgan adiblar asarlari asosida katta-katta sahna asarlari, musiqali dramalar, operalar ijod qilishlar maktab o'quvchilariga zavq-shavq bag'ishlaydi. Masalan: «Dilorom», «Shoir qalbi», «Hamza», «Maysaraning ishi» operalari so'zimiz isboti bo'la oladi. Yosh avlodni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'zbek xalq qahramoni Sobir Boboyevning mohiyati kattadir. Bu inson o'zbek xalqining

g'ururi, ibtixori. Ulug' Vatan urushi yillarida S.Raximovning xalqimiz va Vatanimiz oldida qilgan xizmatlari beqiyos bo'lgan.

Raximov qiyofasida biz oddiy insonning qahramonligi, botirligi, talabchanligi va o'tkir qo'mondon sifatida ko'z oldimizga keltiramiz va bunday shaxs bilan o'zbek xalqi faxrlanadi. S.Raximov to'g'risida kino bilimlar va qanchadan – qancha badiiy adabiyotlar ijod qilingan.

O'zbek kompozitoridan opera janrlarini musiqa darslari jarayonida o'rganish, ulardagi mazmunlarga ahamiyat berish, musiqa san'ati bilan adabiyotning bog'liqligini o'quvchilarga tushuntirish, tasviriy san'at, xalq amaliyoti san'ati to'g'risida o'quvchilarga saboq yetkazishlar maktab o'quvchilarini ma'naviy boyligini rivojlantiradi. Ulug' rus mussaviri U.Repin aytgan edi - «San'at faqat o'z ildizida yaxshi tushunarli bo'ladikim, agar u o'z yurtida, o'z Vatanida rivojlangan bo'lsa. «Bu so'zlar boshqa xalqlar va insonlarning san'atini madaniyatini kamsitish demoq emas, aksincha o'z san'atini adabiyotini va madaniyatini yaxshi bilganlar. Boshqa xalq va elatlarning madaniyati va san'ati bilan yaqindan tanishish sharafiga muyassar bo'ladi.

Bolalarga ko'pdan-ko'proq o'z ongini oshirishga imkon tuyg'diring, umuminsoniy, umujahon madaniyatini o'rganishda yo'llar oching»-deb yozgan edi. Yozuvchi B.G.Belinskiy hayotiy amaliyoti shuni ko'rsatadikim, o'z atrof muhitida, o'z milliy sharoitda o'sgan bola san'atni chuqurroq va kengroq o'zlashtirishga intiladi. Dars jarayonida bolalarga musiqiy san'at namunalariga jiddiyroq nazar solishimiz lozimdir. Bu odamlar hayoti haqqoniylikni borligini aks ettiraoladigan bo'lishlari shart, chunkibular kelajakka yosh avlodni to'g'ri tarbiyalashda katta e'tiborga egadir. Estetik tarbiya faqatgina adabiyot darslarida, tasviriy san'atda, tabiatshunoslik jarayonida emas, balki musiqiy darslarda ham o'z o'rnini mustahkamlash zarurdir.

Estetik ta'limning mohiyatining tahlil qilishda maktab o'quvchilari orasida milliy san'atning o'rganish jarayonida sodir bo'layotgan nuqsonlar kamchiliklar, san'at dasturlaridagi yetishmovchilar hisoblanib umumiy esteti tarbiyaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbek musiqiy san'atini maktab o'quvchilariga o'rgatish

jarayonida o'qituvchi aynan milliy san'atga ko'proq e'tibor va o'rganish vositalari bilan o'zbek milliy yodgorliklarini musiqiy san'atini yanada yaxshiroq o'rganishlariga asosiy sababchi bo'lmog'I lozim. O'zbek musiqiy san'atkorlari o'z asarlarida o'z xalqlarining hayotiy sharoitlarini aks etib bu asarlar vositalari bilan yoshlarning tarbiyasini zamon talablariga javob beraoladigan tarzda yetkazishlarini maktab musiqa o'quvchilaridan so'raydilar. Ko'zga ko'ringan o'zbek kompozitori M.Burhonov, Muxtor Ashrafiy, Sobir Boboyev. X.Izomov, Sh.Ramazonov, A.Muxammedov, M.Bafojev, M.Tojiyevlar shular jumlasiga kirib bu san'atkorlar o'z asarlari bilan yosh avlodni tarbiyalashda o'zbek musiqiy madaniyatida salmoqli hissa qo'shib kelganlar.

Yoshlarni tarbiyalashda musiqiy asarlar mazmunnida o'tmishdagi xalq qahramonlarni e'zozlash, mehnatni ulug'lash xotin-qizlar to'g'risidagi kuy va qo'shiqlarni o'rganish, mehnat va urush faxriylarini qadrlash kabi musiqiy, san'at namunalari bo'lishlari mumkin. Taklif tariqasida umumta'lim maktablarida musiqa darslarida o'quvchilarga opera san'ati bilan birgalikda «Simfonik orkestri» ning tuzilishi va ulash uchun ijro qilingan asarlar turkumiga fransuz kompozitori J.Bizening «Karmen» operasidagi uvertyurani misol keltirib simfonik orkestr tarkibidagi musiqiy asboblardan bolalarni tanishtirish ham mumkin. Masalan I va II skripkali alt va violonchel asboblari va h.k. IV-sinf o'quvchilari uchun. V-sinf musiqa kitobida simfonik orkestrining tuzilishi va undagi guruhlarni bolalarga tanishtirib buyuk kompozitorlar: Lyudvig Van Betxoven, Pyotr Ilich Chaykovskiy va o'zbek kompozitori Mirsodiq Tojiyevning simfonik orkestri uchun simfoniyalari, konsertlari, poemalari, uvertyuralari namuna sifatida keltirilgan.

V-sinf o'quvchilarini vocal-simfonik janrlari bilan ham tanishtirib kontata,oratoriya, qasida to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga bu yoshdagi o'quvchilar sahna musiqa asarlari – balet va raqs san'ati, musiqali drama va komediyasi bolalar uchun musiqali ertak tomoshalarini ham bilib oladilar. Ayniqsa To'xtasin Jalilovning «Tohir va Zuhro» musiqali dramasidan «To'ylar muborak» va «Otmagay tong» qo'shiqlarini tinglab yaxshi taassurotga ega bo'ladilar.

II BOB. Opera san'ati orqali o'quvchi yoshlarni jahon musiqa san'ati va o'zbek opera san'ati to'g'risida tushuncha berish.

2.1. Muxtor Ashrafiy birinchi o'zbek operasi ijodkori sifatida.

Kontata va oratoriya janrlariga ham katta e'tibor berishgan. «O'zbekiston», «Baxt taronasi», «Rustamnoma» asarlari shular jumlasiga kiradi. «Baxt taronasi» kontatasi T,Fattoh she'ri 5 – qismdan iborat bo'lib: birinchi va boshlanish qismi bir tema asosida ijod qilinib «Cho'lquvarlar yurishi» deb nomlangan.

I-qism «Umrboqiy xalq orzusi»

II-qism «Mening Vatanim qizlari qoshig'i»

III-qism «Mehnat qo'shig'i»

IV-qism «Cho'llarni bostonga aylantiramiz»

V-qism «Vatanga shon-sharaflar bo'lsin»

M.Ashrafiyning «Dilorom» operasi musiqiy dramaturgiyasi juda qiziqarlidir. Janr jihatdan bu katta afsonaviy-romantik opera bo'lib, ariya, ariozo, romans, qo'shiq, vokal ansambllar, rivojlangan ommaviy xor sahnalari kabi yakunlangan yakka tuzilmalardan iborat. Asarda musiqiy-dramaturgik rivojlanish leytmotiv tizimda yorqinroq namoyon bo'ladi. Alisher Navoiyning «Sab'ai Sayyor» dostonidagi o'lmas qahramonlar M.Ashrafiy talqinida uning dramaturgik fikrlaridan kelib chiqqan holda yangi qirralarni kasb etdi. Libretto mualliflari K.Yashin va M.Muhamedov klassik syujetni erkin talqin qilib unda romantik xususiyatlarni kuchaytirishdi: mazmun yo'nalishini, dramaturgik nizoni o'zgartirishdi, bosh qahramonlar vazifalarini yangicha talqin etishdi. Xususan, rassom Moni obrazi librettoda asosiy qahramonga aylangan. «Dilorom» operasining tuzilishi ommaviy sahnalardagi dramaturgik boylamalarga, intermediyaviy xoreografik lavhalarga, rivojlangan va yakunlangan ariya, romans, qo'shiqlarga, vokal ansambllar almashuviga asoslangan.

Kontata mazmunida respublikamiz hukumati chiqargan cho'llarni obod etaylik qarorini ro'yobga chiqarish maqsadida Qoraqum gullarida turkman kanalini

qazib cho'lni obod qilish, mehnatni e'zozlash, insonlarni baxtini kuylash kabi mavzular asos qilib olingan.

Bu kontata O'zbekistonda xor janrini rivojlantirishda alohida o'rinni egallab, mazmun va mohiyati jihatidan boshqa kontatalardan ancha ustunroq turadi. Muxtor Ashrafiy bu kontatasi uchun Davlat mukofotiga sazovvor bo'lgan. Asosiy musiqiy mavzu bu katta xor jamoasi ijrosida boshlanadigan «Cho'lquvarlar yurishi» bo'lib, bunda marsh tempasida ijro etiladigan ulug'vor kuy tinglovchilarga e'tiborini o'ziga jalb etadi.

Musiqiy mavzu insonlarni mehnat jasoratigam gullarni gulistonga aylantirishga da'vat e'tuvchi xarakter va ma'noga ega bo'lgan musiqiy ohanglar bilan boshlanadi. Bu qismning asosiy tonal'nosti mimminor bo'lim kuy ohangi chiroyli va tezda esga qoluvchidir. Kompozitor bu qismda 4-ovozli xor jamoasidagi ovozlarda alohida alohida turtki vositalarini ishlatib har bir partiyalarni tinglovchi e'tiboriga havola etadi. Xor jamoalari ijrosida gomafonik-garmonik elementlarini mohirona qo'llab asar mazmunini yaxlitligiga mazmunli ravishda yoritadi.

Bo'l - sin cho'l - lar gu - lis - ton, gu - lis-ton

bo'l - sin bo' - '

Bo'l - sin cho'l - lar gu - lis - ton, gu - lis-ton

bo'l - sin bo' - '

Har partiyalaridagi kuylar ravon, kuychan, ijro etiladi. Ba'zi joylarda erkaklar ovozi bilan ayollar ovozlari joy almashadi va jumla oxirlarida aksincha vaziyat nazarda tashlanadi.

Bu asarni umumta'lim maktablardagi 6-7 sinflar ijrosida dasturga kiritish mumkin, lekin bolalar ovozlari uchun asar tessiturası biroz balandlik qiladi.

Shuning uchun ham boshqa tonal'nostga ko'chirish (tropozitsita) mumkin.

Asar mazmunini yosh avlodni mehnatga, cho'lni obod qilish g'oyalariga boy bo'lib Vatanimiz chaqiruviga labbay deb javob beruvchi sermazmun kuylar bilan bezatilgan.

O'zbekistonda balet janrini yuksaltirishda kompozitor Muxtor Ashrafiyning salmoqli hissi qo'shilgan. Yuqorida nomlari keltirilgan «Sevgi tumori», «Amir Temur», «Matonat», «Sevgi va qilich» nomli baletlari shular jumlasiga kiradi. «Sevgi va qilich» asari ikki tahrirda sahnalashtirilgan. Birinchi «Temur Malik» nomi bilan.

1971 yilda Dushanbe opera va balet teatrida sahnalashtiriladi va 1974 yilda Toshkent opera va balet teatrida qo'yiladi. Ikkala nom bilan ijod qilingan bu balet mazmunida o'z xalqining Chingizxon o'rdasiga qarshi kurashga rahbarlik qilgan. Xo'jan hokimi Temur Malikga – mardona lashkarboshiga bag'ishlanadi. Birinchi bor o'zbek balet sahnasiga real tarixiy shaxslar paydo bo'ladi, qahramonlik mavzusini aks ettirishda ilk tajriba qilinadi. Balet san'ati xususiyatiga javoban asarda Temur Malik obraziga shoirona tus berilgan: bosh syujet chizig'I (ikki qarama-qarshi kuchlarning kurashi) dan tashqari sevishganlar Temur malik va Zarina obrazi orqali lirik sevgi chizig'I ham kiritilgan.

Balet musiqasi o'z asosida simfoniylashtirilgan. Bu ba'zi sahnalarning shakllanish prinsiplariga boshlang'ich tematik materialni rivojlantirish uslubida va nihoyat, tembr bo'yoqlaridan foydalanishda namoyon bo'ladi. Balet dramaturgiyasining o'zida esa ifodali vositalari xilma-xilligi, shukblarning kengligi, materiallar asoslanganligi bilan ajralib turadigan salbiy obrazlar doirasi nisbatan jo'shqinroq chiqqan.

«Chingizxon shiyponi» (to'rtinchi ko'rinish), «Hujum», (beshinchi ko'rinish) kabi sahnalar yuksak badiiy ifodali darajada ko'rsatiladi. Balet musiqalari o'zbek musiqa san'atining milliy xususiyatlari bilan uzviy bog'liq. Bu ovoz ohangdorligiga hamda Ashrafiy baletlarida musiqali dramaturgiyaning muhim vositasi bo'lgan ritmik tomonga ham taaluqlidir. (janr talablarga javoban asar ritmik formulalarga boy ritm dinamikasiga ega).

O'zbek baletini tarixiga nazar tashlasak, bu janr rivojlanishi yuksalish yo'lidan borayotganligini ta'kidlashga haqlimiz. An'anaviy madaniyati ko'p ovozlik, simfonik orkestr, to'la xususiyatlarga ega milliy teatrni bilmagan respublikada milliy balet yaratish masalasi qiyin muammolardan biridir. O'zbekistonda balet janrini yaratilishida muhim omillardan biri rivojlangan qadimgi milliy raqs san'ati bo'ldi. Agar dastlabki partituralar o'zida fol'klor materialning syuita prinsipida mujassamlashtirgan bo'lsa oxirgi o'n yillikda mansub asarlarda fol'klor manbalarini erkinroq talqin etisha va voqeani musiqali sahna ifodasida zamonaviy usullarga asoslanib, spektakl musiqa dramaturgiyasining yaxlitligiga erishildi. Shuning uchun ham Muxtor Ashrafiyning «Temur Malik» baleti ham musiqiy xususiyatlari bilan va ham dramaturgiyasida yosh avlodimizni jasurlikda, o'z Vatanini ardoqlashga xalqini e'zozlashga da'vat etuvchi asarlar turkumiga kiradi.


2.2. Umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarining musiqa tinglash jarayonida opera janrlaridan foydalanish uslublari.

Musiqiy mashg'ulotlar yosh avlodni tarbiyalashdan alohida o'rinni egallaydi. Sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlari quyidagi tarbiyaviy sohalarni yosh bolalarga singdiradi: Bolalarga musiqaga bo'lgan ishq havaslarini o'stirish, musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiyyuksalishlariga ko'makdosh bo'lish. Musiqiy san'at bu bir ilohiy kuch bo'lib uni ko'z oldimizga ko'rish imkoniyatlariga ega emasmiz (xuddi bir sahna asarini ko'rganday, rassomlarning suratlarini tomosha qolganday yoki badiiy o'qishni sahna oldida ko'rishday). Musiqiy san'at bu har kimning o'z imkoniyatiga ko'ra o'sha musiqiy asarni eshita bilish tushunish va his eta bilishdan iboratdir. Shuning uchun bir musiqiy asarni

har kim o'ziga tasavvur etaoladi. Musiqiy asarni tinglab bo'lgach maktab o'quvchilaridan uning kim qanday tasavvur etganini so'rab olish tavsiya etiladi. Musiqaning asosiy doirasi – uni sezish va zavqlanishdan, rohatlantirishdan iboratdir. Musiqiy asar har kimga har xil kayfiyatni baxsh etadi, kimgadir falsafiy ruhni (masalan yaxshilik va yomonlik tuyg'ulari yoki ozodlik hamda zulm-istirob va h.k.) uyg'otadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda bolalar tomonidan musiqiy asarlarni his etish qobiliyatlarining rivojlantirish musiqa o'qituvchisining asosiy maqsadlaridan biri bo'lmog'I lozim. Bu yo'nalishda asosiy ish uslublari bu: musiqiy asarni eshitgandan keyin bolalar bilan ana shu mavzuda suhbatlar o'tkazish, konsert – leksiylalar, biror-bir kompozitor haqida kinofilmlar tomosha qilish, baletlar va opera asarlarini kinolarning ko'rish yosh avlodga yaxshi taasurotlar qoldiradi. Masalan Muxtor Ashrafiyning «Bo'ron» operasidagi xorlarni tashkil etish: II – sahnadagi «Qizlar to'y xorini» birinchi ijroda bu xor asari bir ovozli bo'lib o'zbek musiqasida mos natural minorda yoqimli muloim kuylar sifatida ijro etiladi (solminorda).



Shu sahnadagi bu xorning ikkinchi ijrosi simfonik orkestr jo'rligida ikki ovozdan ijro etilib ovozlar temblari jilohi xor partiyalari orkestr ovozlari bilan jo'enavoz bo'lib, yorqin sho'x va o'ynoqli suratlarda tinglovchiga o'zgacha kayfiyat baxsh etadi.



Bu asarni maktab o'quvchilariga o'rgatishda o'qituvchi ko'proq II – ovozga o'z e'tiborini berib, ikkinchi ovozga mos registrdan yozilgani diqqatga sazovvor, chunki birinchi ovoz yuqori registrlarga mos pardalarga ega bo'lib pastki tovushlar II – ovoz registrlari bilan qo'shilib ketadi va shuning uchun I – ovoz yaxshi eshitilmaydi. Quyida umumta'lim maktablari musiqa madaniyati fanidan opera to'g'risidagi 1-soatlik dars ishlanmani ko'rib chiqamiz.

5 – sinf IV chorak 4 – dars

Mavzu: O'zbek musiqasida opera janri.

Maqsad: a) Opera haqida tushunchaga ega bo'lish
b) O'quvchilarni estetik ruxda tarbiyalash
v) Muchiqa janrdari, musiqa tarixini bilish
hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish.

Dars tipi: Aralash

Dars usuli: Aqliy xujum, kartochkalar bilan ishlash.

Dars uchun zarur jihozlar: Tarqatma materialla, musiqa savodiga oid tarqatma materiallar, magnitofon, video tasma. Multimedia.

Dars bosqichlari va vaqt taqsimoti

№	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism O'quvchilar bilan tanishuv Guruxlarga ajratish	2 daqiqa
2	O'tilgan darslarni mustahkamlash Ekrandagi savollarga javob Aqliy hujum. Kartochkalar bilan ishlash.	10 daqiqa
3	Yangi mavzu O'zbek musiqasida opera janri	10 daqiqa
4	Qo'shiq kuylash Gul terdi gullar	10 daqiqa
5	Musiqa savodi: kartochkalar bilan ishlash	10 daqiqa
6	Dars yakuni. Mustahkamlash rag'batlantirish.	2 daqiqa
7	Uyga topshiriq berish.	1 daqiqa

Darsning borishi

Tashkiliy qism

O'quvchilar bilan tanishuv, guruxlarga ajratish

O'quvchilarni 4 guruxga ajratiladi.

1 – gurux dutorchilar

2 – gurux rubobchilar

3 – gurux doirachilar

4 – gurux changchilar

Musiqqa ostida kirib keladilar.

O'quvchilar pedjyklarni taqib unda tasvirlangan rasmga qarab guruxlarga ajratib oladilar. (Pedjikka o'quvchilarning ismi ham yozilgan, o'quvchilarni dars qoidalari bilan tanishtiriladi. Darsda rag'bat kartochkalaridan foydalanishi aytiladi. Aylananing 4 qismga bo'lingan har bir to'g'ri javob uchun bir aylananing bir bo'lagi beriladi.

Eng ko'p bo'lakcha yig'ib aylanalar hosil qilgan o'quvchilar dars yakunida rag'batlantiriladi.


Aziz o'quvchilar bugun darsimizda mo'jizalar maydonchasi o'yinini ham o'ynaymiz. Maydonchamizda musiqaga oid hikmatli so'z berkitilgan. Kim berilgan savollarga to'g'ri javob bersa hoxlagan harfini ochishi mumkin. Agar siz darsda faol ishtirok etsangiz dars yaekunida berilgan hikmatli so'z maydonchada o'z aksini topadi. Agar darsda faol ishtirok etmasangiz hikmatli so'zni ocha olmaymiz. Kelinglar aziz o'quvchilar musiqaning sexrli olamiga sayoxat qilib, musiqiy bilimlarimizni sinab ko'ramiz. Ekrandagi savollarga javob beramiz.

1. Tasvirdagi inson kim? U haqda ma'lumot bering.
2. Bactakor kim?

O'quvchilar javobi, undan keyin bastakorning javobi.

3. Berilgan tasvirdagi cholg'u asboblari nomlarini sanab bering.

Doskada klaster usulidan foydalanib, musiqa janrlarini sanab o'tiladi. Aziz o'quvchilar siz qanday musiqa janrlarini bilasiz?



4. Berilgan lavxa musiqaning qaysi janr turiga mansub u haqda nimalarni bilasiz? (To‘maris baleti haqida) Balet janriga mansub, Ulug‘bek Musaevning “To‘maris”
5. Hayvonlar ijrosilagi lavxa musiqaning qaysi janriga mansub?
(“Xayvonlar sultoni” operasi haqida)

Guruxlarda ishlash uchun vazifa beriladi. Vazifa shunday, har bir guruxga vatman beriladi. Vatmanda tablitsa mavjud. Tablitsada raqs san'ati, musiqali drama va komediya, balet, opera 5 ta ustun mavjud. Konvertda musiqa janrlarga oid asarlar berilgan. Sizlarga vazifa har bir asarni o‘z ustuniga joylab bering. Vazifa uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Yangi mavzu tablitsa yordamida tushuntirib beriladi. Ekranda “Kim bo‘lsam ekan?” savoli chiqadi. Avaz Mansurov “Xayvonlar operasi”ni yozganligi ko‘rsatiladi. Ekranda Nadim Norxo‘jaev ko‘rsatiladi. Bu inson kim deb savol beriladi. Nadim Norxo‘jaev o‘zbek bastakorimiz. Ular 1947 yilda Toshkent shaxrida tug‘ilganlar. Nadim Norxo‘jaev bolalar uchun juda ko‘plab qo‘shiqlar yaratganlar. “Yaxshi bola”, “Chamandagi gullarmiz”, “O‘zbekimlan aylanay”, “Gul terdi gullar” kabi juda ko‘p qo‘shiqlar yozganlar. Bugun biz sizlar bilan Nadim Norxo‘jaevning “Gul terdi gullar” qo‘shig‘ini o‘rganamiz. Qo‘shiqni kuylab beraman va bo‘laklarga bo‘lib o‘rganamiz.

Aziz o‘quvchilar hozir siz o‘zingizni musiqiy savodingizni test savollari orqali tekshirib ko‘rasiz.

Ekranda test savollari beriladi. Savollardan so‘ng javoblar beriladi. Siz o‘z daftaringizga javoblarni belgilang. Vazifa bajarilgandan so‘ng ekranda javoblar chiqadi. O‘quvchilar o‘z javoblarini tekshiradilar.

Aziz o‘quvchilar hozir biz siz bilan 5 chisi ortiqcha o‘yinini o‘naymiz. Kartochkalar tarqatiladi. Kartochkada berilgan qaysi so‘z ortiqchaligini topib bering va izoxlab bering.

1 – kartochka.

1. Doira, nog‘ora, qayroq, g‘ijjak, safoyil.

Bu yerda g‘ijjak so‘zi ortiqcha, chunki doira, nog‘ora, qayroq, safoyil zarbli cholg‘u guruxiga kiradi. G‘ijjak esa torli, kamonli cholg‘u guruxiga kiradi.

2 – kartochka.

Dutor, rubob, nog‘ora, afg‘on rubobi, prima.

Buerda nog‘ora cholg‘u asbobi ortiqcha. Dutor, rubob, afg‘on rubobi, prima mezrobli cholg‘ular, nog‘ora esa zarbli cholg‘u.

3 – kartochka.

Dutor, rubob, chang, afg‘on rubobi, qashqar rubobi.

Bu yerda chang cholg‘u asbobi ortiqcha. Dutor, rubob, afg‘on rubobi, qashqar rubobi mezrobli cholg‘ular. Chang esa torli cholg‘u.

4 – kartochka.

Nay, karnay, dutor, surnay, qo‘shnay.

Dutor cholg‘u asbobi ortiqcha, chunki karnay, surnay, nay, qo‘shnay damli cholg‘u guruxiga kiradi.

Dars davomida to‘g‘ri javob bergan o‘quvchilar mo‘jizalar maydonchasidagi hikmatli so‘zni ochadilar.

Qani o‘quvchilar qaysi gurux aylananing bo‘lakchalarini ko‘p yig‘di? Faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. G‘olib gurux aniqlanadi.

Uyga vazifa.

O‘zbek musiqasida opera janrini o‘qish. “Gul terdi gullar” qo‘shig‘ini yodlab kelish.

Dars “Kamolot” qo‘shig‘i bilan yakunlanadi.

2.3. O'zbek kompozitorlarining opera asarlari orqali yoshlarda musiqiy idrokni tarbiyalash.

O'zbekistonimiz taraqqiyotini hozirgi kunda ma'naviy jihatdan yetuk yoshlar hal qiladi. Erishilgan mustaqillik xalqining ma'naviy madaniy taraqqiyotiga mustaqil fikrlay oladigan yoshlarni voyaga yetkazishda ularni komil inson qilib kamol toptirishga keng yo'l ochib berdi. Milliy qadriyatlarimiz o'z qadrini rostlay boshladi. Mustaqillik tufayli yoshlarda milliy iftixor, milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlashga alohida e'tibor berila boshlandi va har bir yetuk yosh o'z qobiliyatini o'z iste'dodini namoyish qilishga shaxs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Asrlar davomida shakllanib milliy qadriyatimiz qaytadan tiklandi. Ularni asliga o'z holiga keltirish va rivojlantirishimizga xalqimizning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlar, milliy bayramlari, boy qadimiy merosi o'zining o'zni va ahamiyatiga ega bo'lib bormoqda.

Millat mavjud ekan, milliy qadriyatlarning ahamiyati, kamaymaydi. Millatning ma'naviyat jihatidan bir-biriga yaqinlashib borishi ham milliy qadriyatlarning rivojlanish va amal qilish imkoniyatlarini kamaytirmaydi, balki kengaytiradi. Umuman olib qaraganimizda milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, ular muayyan mustaqil ijtimoiy etnik birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir.

Erishilgan mustaqillik qadriyatlarning tiklanishi bilan bir qatorda Vatanimizning fidoiy yoshlariga bo'lgan e'tiborini ham kuchaytirdi. Ularni qayta tiklanayotgan qadriyatlar asosida, ularga tayangan holda komil inson qilib voyaga yetkazish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Bizning an'alarimizga ko'ra insonning komilligi avvalo uning axloqi yetukligiga, millatining qadriyatlarini e'zozlashda, ajdodlarning merosini chuqur o'rganib uni boyitib katta-yu kichikka e'tiborini ko'rsatish borasidagi harakatlarida ko'zga ko'rinadi. Komil inson nafaqat alohida shaxslarni balki butun xalqni yuksak taraqqiy sari yetaklaydi. Ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida tengsiz yutuqlarga erishishga undaydi. Komillikni orzu qilmagan barkamol avlodni voyaga yetkazish

haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi bo'lmaydi. Bunday xalq va millat tanazulga mahkumdir.

Har bir millar o'z qadriyatlarini rivojlantirish va unga amal qilishda milliy ong, milliy bardamlik tuyg'usining ahamiyati kattadir. Milliy ruhiyat va ma'naviyatdan mahrum bo'lgan kishilardagina o'z tili, tarixi, an'alariga salbiy munosabatda bo'lish mumkin. Agar shunday ahvol ma'lum siyosat ta'sirida kengayib borsa millat birligi va kamolati uchun nihoyatda xatarli bir hol yuzaga keladi.

Biz shuning bilan faxlanamiz. Bizning o'lka iste'dodlarga, iste'dodli yoshlarga boy o'lkadir. Millatimizning istiqboli, uni obod va farovon qudratli «Kelajagi buyuk davlat» bo'lishi bugungi kunda shu iste'dodli yoshlarga bog'liqdir. Bu yoshlar milliy qadriyatlarni o'z ongida, dunyoqarashida singdira olgan g'uruli, vijdonli, aqlan teran, vatanparvar, jismonan baquvvat, aqlan yutuk, ruhan sog'lom, yuqori darajadagi madaniyatga ega bo'lgan komil shaxslar darajasidagi yetuk insonlar bo'lishi lozim. Ularning ongiga vatanparvarlik va ijodparvarlik tushunchalarini milliy qadriyatlar asosida singdira borishimiz lozim.

Insonparvarlik o'zbek xalqi milliy ruhiyatining uzoq negizidir. Shavqatsizlik va zo'ravonlik uning tabiatiga yoddir. Insonparvarlik insonni tushunish hamdir.

Vatanparvarlik faqat qo'lga qurol olib Vatan uchun kurashish emas, fan, madaniyat, amaliy mehnat malakalarini chuqur egallab, ona yurt dovrug'ini olamga yoyish ham vatanparvarlikdir. Ko'plab Vatandoshlarimiz fan, madaniyat va yuksak amaliy san'at malakalarini egallab, rivojlantirib o'z Vatanlarining dovrug'ini olamga yoyganlar.

Vatanparvarlik kishining o'z tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy fazilatlardir. Vatanparvarlik va insonparvarlik inson ma'naviy qiyofasining asosiy mazmunidir. Bunday qadriyatlarni o'ziga mujjassamlashtirgan yoshlarning ongini hech qanday buzuq g'oya va mafkuralar egallay olmaydi. Ular har qanday ta'sirga berilib ketavermaydi. Bunday yoshlar Vatanimizni kamsitishga yo'l qo'ymaydi.

Asrlar davomida aqlu-zakovat ila bunyod etgan boy ma'anaviyati, milliy qadriyatlari tufayli xalqimiz mag'rur yashaydi. Shu o'rinda hozirgi zamon yoshlari ham boy ma'naviyatimizni bilgan holda bilimlarni ham tobora va ko'proq bilishga harakat qilsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yoshlarimizni ongiga milliy qadriyatlarni singdirgan holda ularga eng zamonaviy bilimlarni berib borishimiz kerak. Kelajakda yoshlar O'zbekistonnig mavqeini ko'klarga ko'taradi, Vatanini har doim himoya qiladi. Bugun Vatanimizning har bir asl farzandi o'zini ona yurtining ajralmas bo'lagi deb his etayapti va bundan faxrlanayapti. Istiqlol bergan eng katta boyliklardan birinchisi anashu desak, aslo yangilishmagan bo'lamiz. Bularning barchasi bugungi kunda xos bo'lgan yorqin xususiyatlardan biri bo'lib, milliy o'zligimizdan dalolat beradi.

Biz bir narsani yaxshi anglab olishimiz kerakki, diniy va dunyoviy bilimlarga ega, ongli tafakkuri har xil «izm» lardan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, yoshlarga O'zbekiston kelajagini buyuk qilishga intiladi. Xudoga minqatla shukrlar bo'lsinkim Vatanimizda bunday fidoiy yoshlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Komil inson g'oyasi ham milliy, ham umuminsoniy mohiyatlarga ega bo'lgan, odamzodga xos yuksak ma'naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujjassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliy janob g'oyadir. Biz «Keljagi buyuk davlatni barpo etmoqchi ekanmiz, har tomonlama rivojlangan, barkamol, aqlli, milliy qadriyatlarimizni hurmat qiladigan va to'la rioya qiladigan yoshlarni voyaga yetkazishimizni oliy burch deb bilamiz». Shunday ekan ta'lim sohasidagi barcha zamonaviy bilimlar bilan yoshlarimiz kuchli qurollana, bu bilimlarni egallashda barcha qobiliyatlarini ishga solib bilimlarining mohiyati qanchalik chuqur ekanligini tushunib yetsa, Vatanimizdagi ijtimoiy, siyosiy iqlim keskin o'zgaradi, barcha fuqorolarimiz ongiga demokratik qadriyatlar qaror topadi, bunday yoshlar jamiyatlardagi o'rnini o'zi belgilaydi. Jamiyatdagi o'rnini barcha yoshlarda yuksak ma'naviy qadriyatlarni kamol toptirish, tarixiy an'analarimizga muhabbat va mehr vatanga istiqlol g'oyasiga sadoqat ruhidagi umumdavlat ahamiyatiga molik

tushunchalarni tarkib toptirish orqali zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega.

Demak qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining moddiy va ma'naviy boyliklari rivojining yakuni, inson kamolotining keljagi uchun katta ahamiyat kasb etadigan ijobiy mahsulidir. Qadriyatlarimiz keljagi buyuk bo'lgan mamlakatimiz etnik fuqarolarini voyaga yetishtirish uchun bitmas-tuganmas manba bo'lib hisoblanar ekan, ulardan har tomonlama unumli foydalanmog'imiz bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekistonimizning erkin demokratik jamiyat darajasiga ko'tarilib, dunyoga nom chiqarish bugungi kunda yosh avlodga bog'liq. Zero Vatanning kelajagi, uni gullab yashnashi yoshlarimiz qo'lidadir. Yuqorida aytib o'tgan barcha xususiyatlarni o'ziga shakllantirgan har bir yosh har qanday joyda o'z haq-huquqlarini ajrata oladi, u o'z kuchu, imkoniyatlari bilan olgan zamonaviy bilimlaridan foydalanadi, atrofda bo'layotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadi. Ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radi va har tomonlama o'zining erkin shaxs ekanligini his etadi. Bunday iqtidorli yoshlarga nafaqat o'qituvchilar, domlalar, murabbiylar emas, balki jamiyatda yashaydigan har bir inson yetuk shaxs ularni yanada bilimli bo'lishi uchun qanot bo'lishi kerak. Prezidentimiz I.A. Karimov har doim yosh avlodni barkamol ruhda voyaga yetishtirish, ularga barcha fanlar bo'yicha bilimlar berish, ularning ta'lim olishi uchun barcha imkoniyatlarni ochib berish lozimligini ko'p bora o'qtirib kelmoqda. Darhaqiqat bunday iqtidorli va iste'dodli, bilimga chanqoq, o'tkir zehnli yoshlar uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan deb aytsak mutlaqo xato qilmagan bo'lamiz. Hozirgi kunda iste'dodli yoshlarga ochib berilgan eng katta imkoniyatlardan biri, ularni chet elning nufuzli, ko'zga ko'ringan universitetlarda ta'lim olishlari uchun davlatimiz rahbari I.A.Karimovning ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklarini misol qilib olish mumkin. Ular bu universitetlarda bepul o'qib ta'lim oladilar, o'zlarining malakalarini oshiradilar, tajribasini orttirishga yanada imkoniyat tug'iladi. Biz yoshlar bunday imkoniyatlardan foydalanishimiz darkor. Bunday iqtidorli yoshlar chet el oliygohlarda leksiya o'qishi, o'zini qanchalik kuch-qudratga ega ekanligini

namoyon qilsin. Shundagina O'zbekistonning obro'yi yanada ortadi. Bunday iste'dodli yoshlarga boy bo'lgan o'lkaning kelajagi buyuk bo'ladi. Biz Vatanimiz kelajagiga ishonamiz.

Opera spektakli qanchalik rang-barang qirralarga ega bo'lmasin, musiqa asosiy umumlashtiruvchi, rivojlanishning uzluksizligini ta'minlovchi vosita hisoblanadi. U nafaqat alohida holatlarni izohlaydi, balki dramaning barcha unsurlarini yaxlit bog'laydi, asar qahramonlari harakati asosini, ichki dunyosining murakkab munosabatini aniqlab beradi, ko'pincha bevosita asar g'oyasini ham ifodalab beradi.

Adabiy dramaning tuzilishidan farqli o'laroq, operada musiqaning yetakchi vazifasi asarning bir qator xususiyatlarini aniqlab beradi. Opera dramaturgiyasining mohiyati ssenariy tuzayotgandan boshlanadi, keyinchalik esa librettoni ishlab chiqishda inobatga olinadi.

Librettoni yaratish uchun tayyor adabiy dramatik asar asos bo'lib xizmat qilgan holda, unga odatda dramatik rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi bir qator o'zgartirishlar kiritiladi.

Opera librettosining adabiy dramadan asosiy farqi shundaki, operaning mazmuni qisqa va lo'nda bayon etiladi.

Tarixiy rivojlanish jarayonida opera dramaturgiyasining rechitativ, ariya, arioso, turli ko'rinishdagi ansambllar, xorlar, balet sahnalari, simfonik vositalar kabi aniq shakllari vujudga keldi. Opera dramaturgiyasining ahamiyatidan kelib chiqqan holda ular ham bir xil ko'rinishda saqlanib qolinmaydi. Xususan, XVIII asr Italiya opera seriyasida vokal shakllarning dramaturgik vazifasi va tuzilishi aniq belgilangan va chegaralangan bo'lsa, keyinchalik, ularning ancha erkin qo'llanilishiga imkoniyat tug'iladi. Rechitativ va vokal lavhalar orasidagi chegara keskin olib tashlanadi va shu tariqa tuzilishi va ifodaviy xarakteri jihatdan rang-barang ko'rinishni kasb etadi, turli xil aralash shakllar vujudga keladi. Ko'rinishning katta bo'limlari bitta lavhadan butun bir pardagacha uzluksiz musiqiy rivojlanish asosida yo'naltiriladi.

Tarixiy rivojlanish jarayonida opera dramaturgiyasi cholg'u musiqasida shakllangan simfonik rivojlanishning ayrim uslublari hisobidan boyitib boriladi. Opera janrining simfonizasiya qilish vositalaridan biri bu ma'lum mavzu yoki ohang komplekslarining alohida qahramonlarda mustahkamlanishi bo'lib, butun ko'rinish davomida bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Bu turdagi mavzu yoki ohang aylanmasi leytmavzu deb atalib, yetakchi ohang ma'nosini anglatadi.

Odatda bu atamani R.Vagner operalari haqida yozgan XIX asr nemes faylasufi G.Volsogen bilan bog'lashadi. Lekin G.Volsogengacha bu atamani F.V.Yene o'zining K.M.Veber haqidagi tadqiqotlarida ham qo'llagan. Operada u yoki bu qahramonning xarakteristikasi bilan bog'liq boshqa ifodaviy vositaning paydo bo'lishi va asar davomida bir necha marotaba takrorlanishi hollarida leytdarmoniya, leytdakkord, leytdembr, leytdritm, leytdfaktura va boshqa ifoda vositalari haqida gapirish mumkin.

Leytmavzu ifodaviy mazmun vazifasini bajarish qatorida turli musiqiy materialni mavzuiy birlashtiruvchi muhim vazifani bajaradi. Leytmavzu tamoyili birinchi operalardan hisoblangan K.Monteverdining «Orfey»ida kuzatilgan. XIX asrda esa K.M.Veber, R.Vagner, J.Verdi, P.Chaykovskiy, N.Rimskiy-Korsakov ijodlarida, XX asrda I.Stravinskiy, A.Berg, S.Prokofyev, S.Slonimskiy, M.Ashrafiy, M.Bafojev asarlarida keng rivoj topdi. Operada musiqiy material va simfonik rivojlanishning jadal mavzuiy qayta ishlanishini mujassamlovchi leytmavzu leytmavzular tizimi haqida so'z yuritishga imkon yaratadi. Bu tizimni biz R.Vagner operalarida kuzatishimiz mumkin.

Repriza tamoyilining qo'llanilishi, tonal rejaning yaxlitligi, sahnaviy voqyeaning bir-biridan uzoqlashgan elementlarini bog'lash omillari operani tugallangan musiqiy-dramatik yaxlitlikka aylanishini ta'minlaydi. Operani simfonizasiyalashga bo'lgan intilish ba'zida yaxlit epizodlardan voz kechilishiga olib keladi. Turli milliy maktablar kompozitorlarining opera ijodida uzluksiz musiqiy rivojlanishning vaqtinchalik to'xtalishlar bilan moslashuvi kuzatiladi. Bu hol qahramonning ichki va ruhiy holatlarini, ruhiy kechinmalarini yoki unga xos xususiyatni yirik planda ko'rsatib berishga imkon yaratadi.

Opera asarlarida variasion, rang-baranglik kabi sof cholg'u tamoyillarining xususiyatlari ham uchrab turadi. Ular dramatik mantiqning talablariga bo'ysungan holda operada cholg'u musiqasiga nisbatan ancha erkin va silliq namoyon bo'ladi.

Opera dramaturgiyasida vokal va orkestr bayoni rechitativning ba'zi epizodlarda uzluksiz rivoji, kengaytirilgan nafasdagi vokal ohang, yakka kuylash, ansambllar va xorlar bilan bog'liq bo'lgan masalalari uchrab turadi. Opera dramaturgiyasining turlari nafaqat davrning umumiy badiiy tamoyillariga, balki syujet xarakteriga, asar janriga (katta, tarixiy-qahramonona, doston, ertak, lirika-dramatik, kichik, hajviy opera), kompozitor ijodining shaxsiy tuzilishiga ham bog'liq. Opera dramaturgiyasining muhim vazifalaridan biri dramaning uzviy bog'lanishini ta'minlash hisoblanadi. Muhim vazifalardan yana biri bu xarakterlarni yanada ishonchli, ifodali va aniq namoyon etib bera oladigan dramatik holatlar zanjirini yaratish hisoblanadi. Shu tariqa muallif tomoshabinning diqqat-e'tiborini jalb etib, asar g'oyasini, kompozitorning fikrini unga yetqazib beradi. Opera dramaturgiyasi kompozitor oldiga bir qator umumiy talabalarni qo'yadi. Opera ko'rinishlari pardalar, ommaviy va yakka sahnalar almashinuvidagi kontrast, musiqiy shakllarning rang-barangligi, klassik asarlarda mukammal ishlab chiqilgan, sahnadagi umumiy muhitni, hattoki artistlarning harakatlarini tasvirlab beruvchi yakka kuylashning turli shakllari (ariya va arioz, turli ko'rinishdagi rechitativlar, ritmlashtirilgan nutq), ansambllar, xorlar, orkestrdagi kirish qismlari, intermediyalar va interlyudiya asosiy talablar qatoriga kiradi.

Musiqiy xarakteristikani rang-barang qilishga bo'lgan ehtiyoj kuylovchilar ovozlarning sifatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bundan kelib chiqqan holda baland va past ovozlarda bosh qahramonlarga, 2-darajadagi va kichik rollarga ularning ovozlari mos vokal partiyalar taqsimlanadi. Umumiy talablar qatoriga bir qator asar qahramonlarini boshqacha talqin etish ham kiradi. Bu hol ko'pincha adabiy manba'ning operaga aylantirilishi va asardagi ko'rinishlar hamda pardalarning hajmini mantiqan bo'lish jarayonida amalga oshiriladi.

Klassik merosda yirik hajmdagi parda va sahna ko'rinishlari odatda operaning boshida va oxirida, ba'zida esa o'rta qismlarda ham qo'llanilgan. Misol sifatida

J.Bizening «Karmen» operasini olishimiz mumkin. Bu operada eng katta dramatik akt bor yo'g'i 15 minut davom etadi. Psixologik qabul qilish nuqtai nazaridan esa bu juda uzoq davom etuvchi holat hisoblanadi. Tomoshabin diqqatini toliqtirish esa operadan olinadigan taassurotni susaytiradi. Bunday hollarni muallif inobatga olishi zarur.

Opera dramaturgiyasida muhim masalalardan biri – so'z matnining operadagi o'rnini hisoblanadi. Dramada talaffuzda so'zlashuv matni tinglovchiga to'liq yetib boradi va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Operada esa vaziyat boshqacha. Ajablanarlisi shundaki, ba'zida so'zning haddan tashqari ko'p qo'llanilishi musiqani tinglashga xalaqit beradi. P.Chaykovskiyning «Yevgeniy Onegin» operasining 1-pardasidagi Onegin, Lenskiy, Tatyana va Olga ishtirokidagi kvarteti fikrimizga misol bo'la oladi. Sahnada so'zning ko'p qo'llanilishi hyech qachon yaxshi yangramaydi. Chunki ijrochilarning har biri o'z partiyasidagi har xil so'zlarni talaffuz qilishga haddan tashqari harakat qiladi. Shu bilan birga so'zlar ariozali rechitativ ko'rinishda jonli harakatda kuylanadi. Natijada tinglovchi ularning asl mazmunini anglab yetolmaydi va ularning e'tibori musiqadan chetlashadi. Ansambl ham polifonik nuqtai nazardan murakkab bo'lib, bunday ijroda u o'z ko'rinishini yo'qotadi. Shunday bo'lsa-da, mazkur sahnaviy holat ortiqcha so'zlarsiz ham tushunarli. Buning uchun birinchi «Skaji, kotoraya Tatyana?» solo bayonining o'zi ham yetarli.

Operada adabiy matnning tushunarli bo'lishi uchun nisbatan uzoq davom etgan kuylashda turli o'ziga xos sharoitlarning yaratilishi talab qilinadi. Xususan, so'zlarning ohang jihatdan ajratilishi, ovozning baland tessiturada bayoni, so'zning to'xtalishlar yordamida maxsus yo'naltirish, uning alohida va tez solo talaffuzi, yetakchi so'zlarning ko'p marotaba takrorlanishi va atroflicha kuylanishi shular jumlasiga kiradi. Ko'p marta takrorlanadigan yetakchi so'zlarning dramaturgik uslubini P.Chaykovskiy «Pikovaya dama» operasida «Tri karto', mne strashno» so'zlarida mohirlik bilan qo'llagan. Ajoyib opera dramaturgi M.Musorgskiy so'zlarni ohang jihatdan ajratishda mohir usta bo'lgan. Taniqli kompozitor J.Rossini rechitativlarda tezaytishlarni rang-barang qo'llagan.

Opera dramaturgiyasida dramatik teatrdan farq qiluvchi ayrim uslublar qo'llaniladi. Solistlarning lirik ifodasida, ularning uzun ariyalarida musiqaga xos bo'lgan personajlar ruhiy holatining umumlashgan ifodasi birinchi darajaga chiqadi. Adabiy matn esa ma'lum vazifani bajargan holda buni ifoda etishga imkon yaratadi. Hissiy kechinmalardan mahrum bo'lgan adabiy hikoya dramaturgik vazifani bajarmaydi. Bunday hollarda tinglovchi so'zlar mazmunini anglab yetmaydi, faqatgina musiqani qabul qiladi.

Dramatik teatrdan to'laonli va ishonarli yangrovchi barcha so'zlarni ham kuylab bo'lavermaydi. Va buning aksi, dramada yangrash mumkin bo'la olmagan matn emosional boyitilgan badiiy musiqiy talqinda juda ham qo'l kelishi mumkin. Misol tariqasida M.Musorgskiyning «Boris Godunov» operasidagi Qallob va Marinaning nizoli dialogini keltirishimiz mumkin. Bunda kompozitor «fojiaviy» ohangdan voz kechib Pushkin matnini to'liq o'zgartiradi va ma'lum hollarda maishiy so'zlarni qo'llaydi. Bu operaning romantik ruhini hiech ham susaytirmaydi.

Umuman olganda, opera matnini quyidagi toifalarga bo'lish mumkin:

1. Qahramonlar holatlarini ifodalovchi va voqyea rivojini aniqlab beruvchi, e'tiborni jalb etuvchi so'zlardan tashkil topgan va albatta tushunarli bo'lgan;
2. Umumlashtirilgan jo'shqin musiqiy bayon etish uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan;
3. Aniq talaffuz uchun mo'ljallangan va faqatgina sahnaviy holatlarni yaratish uchun xizmat qilgan, fon vazifasini bajaruvchi so'zlarga ega bo'lgan. U yoki bu darajadagi matnning taqsimlanishi mazkur operaning janr va uslubiga bog'liq bo'ladi. Operaning musiqiy tili ham aniq va tushunarli bo'lishi lozim. Kuylash davomida jo'r bo'luvchi fakturaning murakkablashuvi, haddan tashqari tavsilotlarga berilish, orkestr partiyasining ko'payib ketishi eng yaxshi musiqani ham qabul qilishga katta to'sqinlik qiladi.

Operada yirik ko'rinish nafaqat harakatda, balki musiqada ham bo'lishi darkor. Originallik, yangilik, musiqiy tilning yangiligi yuqori badiiy estetik ta'sirning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Italyan kompozitorlari J.Rossini, V.Bellini, J.Verdining operalari fikrimizni tasdiqlaydi. Yorqinlik, ko'zga tashlanuvchanlik, musiqiy tilning tinglovchiga yetib borishi operaning alohida lavhalarida mujassamlanadi. Bu janrning mohiyati mana shundan iborat.

Operada musiqiy matnning kutish muhitini yaratuvchi psixologik vazifasi juda katta ahamiyat kasb etadi. Va undan keyingi keladigan yetakchi obrazning paydo bo'lishi o'ziga xos mutanosiblikni hosil qiladi.

Kutish vazifasi, operada oldindan aytib berish bosh qahramonlarni dinamik va sahnaviy ifodalab berilishi uchun yoki dramatik holatlar uchun xizmat qiladi. Ular katta hajmlarda, ba'zan keng rivojlangan sahnalarda amalga oshiriladi. Opera so'zli dramadan aynan shu xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Jahon opera dramaturgiyasida dramatik to'qnashuvning yechimi haqida oldindan aytmaydigan va faqatgina o'rab turgan muhitni hamda keyingisiga bo'lgan qiziqishni orttiruvchi «Karmen», «Otello», «Yevgeniy Onegin», «Pikovaya dama» operalarining ekspozitsiyalari bunga misol bo'la oladi. «Yevgeniy Onegin» operasining boshlanishi qadimiy sokinlik muhitida bayon etilgan bo'lib, Lenskiy va Oneginlarning dinamik paydo bo'lishini tasviriy tayyorlaydi va undan so'nggina voqyeaning yechimi keladi.

Sh.Gunoning «Faust», N.Rimskiy-Korsakovning «Shoh qaylig'i», «Sadko», A.Kozlovskiyning «Ulug'bek», M.Tulebayevning «Birjano va Sara» kabi ko'pgina operalar tasodifiy ommaviy sahnalar bilan boshlanmaydi. Ko'p aktli operalar odatda ko'pgina mavzudan uzoqlashgan epizodlarni o'zida mujassamlaydi. P.Chaykovskiyning «Pikovaya dama» operasidan Prilepa va Melovzor kupletlarini, J.Meyerberning «Payg'ambar» operasidan «Konkichilar bali» sahnasini, A.Kozlovskiyning «Ulug'bek» operasidagi «Ganga qayiqchasi» pantomimasini misol qilish mumkin.

Ikkinchi darajali epizodlarning mavjudligi aynan opera dramaturgiyasiga xos xususiyat hisoblanadi. Shuning uchun ba'zi sahnalashtiruvchi rejissyorlar

tomonidan sahnaviy voqyeani umumlashtirish maqsadida bunday epizodlarni olib tashlash noto'g'ridir. Masalan, «Boris Godunov» operasining ayrim sahnaleshtiruvchilari Fyodor va enaganing o'yini sahnasini tasvirlovchi rivojlangan boshlang'ich sahnani asosiy tahrirdagi ikkinchi pardaga qo'shish kerak deb hisoblashadi. Biroq aynan shu sahna bosh qahramon – shoh Boris obrazini yorqin kontrastli avjini ko'rsatib berishda katta dinamik ahamiyat kasb etadi. Oldingi tahrirga nisbatan Borisning «Chto? Al lyutyiy zver nasedku spoloxnul?» so'zlari bilan tasvirlangan fojiaviy-qahrli siymosi, Kseniyaning «yig'i»si paytida esa bilintirmasdan kelib unga yumshoq murojaati umuman boshqacha qabul qilinadi.

M.Musorgskiy tomonidan mazkur epizodning ikkinchi tahririda qayta ishlanishi bebaho topilma bo'lib, opera dramaturgiyasi mohiyatini kompozitor tomonidan chuqur anglab yetilganligidan dalolat beradi. Aniqroq qilib aytganda, aynan uning kutish omili muhim ahamiyat kasb etuvchi aniq sahnaviy talqinda bu namoyon bo'ladi. Opera dramaturgiyasi bir qator ijodiy savollarni o'rta qatag tashlaydi. Bular orasida operaning hayotiyiligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi syujet mazmuni haqidagi savol eng murakkab va bahslidir. Syujetni tanlashda ko'p hollarda teatr pyesalari va adabiy manbalarga murojaat qilinadi. Bu bilan bog'liq bo'lgan masalalarda kompozitor libretto ustida ishlashga alohida e'tibor berishi lozim.

Opera librettosi. Librettoda dramatik voqyeaning asosiy bosqichlari, vaziyatlari belgilanib, ularda qahramonlar xarakteri namoyon etiladi. Libretto bu bo'lajak operaning qisqacha mazmunidir. U o'zida operaning she'riy matnini mujassamlaydi.

XVII asrda libretto teatr tomoshabinlari uchun kichik kitobcha shaklida chop etilgan. XVII va XVIII asr mobaynida bitta libretto ko'p marotaba turli kompozitorlar tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan. XVII-XVIII asrlarda P.Metastazio, R.Kalsabidji, F.Kino, XIX asrda E.Skrib, F.Romani, S.Kammarano, XX asrda esa P.Klodel, J.Kokto, S.Sveyg, G.Gofmanstal librettolari katta muvaffaqiyat qozongan.

XVIII asrning 2-yarmida libretto kompozitor bilan yaqin bog'liqlikda uning bevosita qatnashishida yaratila boshlandi. Bu g'oya xarakterini, voqyea, so'z va musiqaning yanada yaxlitligini ta'minlaydi. Lui da Pontening «Don Juan» (Mosart), Modest Chaykovskiyning «Pikovaya dama», V.Belskiyning «Shoh Sulton», «Kitej», «Oltin xo'rozcha» (N.Rimskiy-Korsakov) operalariga yozgan librettolari shular jumlasidandir.

XIX asrdan boshlab adabiy-dramatik mahoratga ega bo'lgan ayrim taniqli kompozitorlar o'z operalariga o'zlari libretto yozishgan. Bunday kompozitorlar qatoriga R.Vagner, A.Berg, A.Xolminov, G.Fridlar kiradi. Ba'zan kompozitorlar libretto matnining asosiy qismini mustaqil yaratgan holda librettochilar yordamidan qisman, asosan she'riy matnni tayyorlashda foydalanishadi. G.Berlioz, A.Boyto, M.Musorgskiy, S.Prokofyev, K.Orf, J.F.Malipyero, J.K.Menotti mana shunday opera dramaturglari qatoriga kiradi.

Badiiy xalq adabiyoti – afsonalar, dostonlar, ertaklar hikoyalar va professional asarlar – poemalar, romanlar, novellalar, dramatik pyesalar libretto syujetlarining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Adabiy negizga ega bo'lmagan librettolar kamdan-kam uchraydi. Adabiy asarni librettoga aylantirishda odatda katta o'zgartirishlar kiritiladi. Ba'zan faqat syujet olinadi, boshqa hollarda umumiy kompozisiya, qisman matn ham qo'llaniladi. Ko'pincha buning natijasida asar mohiyati ham o'zgaradi. Bunga A.Pushkinning «Pikovaya dama» librettosining M.Chaykovskiy tomonidan qayta ishlanganini misol qilishimiz mumkin. Adabiy matni, yoki uning qisman o'zgartirilgan holati saqlangan opera librettolari juda kam uchraydi. Bunday namunalar qatoriga A.Dargomijskiyning «Tosh mehmon», Musorgskiyning «Uylanish», K.Debyussining

«Pelias va Melizanda», R.Shtrausning «Solomeya» operalarini kiritish mumkin.

Libretto turlari, o'ziga xos xususiyatlari nafaqat mazmuni, balki she'riy, adabiy matnning umumiy tuzilishi, matnning sonlarga bo'linish yoki bo'linmasligi jihatdan rang-barangdir. Har bir tarixiy shakllangan operaga o'ziga o'xshagan libretto mos keladi.

Librettoni yaratishdagi muhim muammolardan biri bu sahnaviy voqea mantiqining musiqiy kompozisiya qonuniyatlari bilan moslashuvidir. Vokal, orfografik va simfonik epizodlarning ketma-ketligi, tezlik va dinamika almashinuvi, ariya, monolog, ansambl kabi ba'zi opera shakllarining yakunlanganligi, va nihoyat, og'zaki matnga (ixchamlik, qulay talaffuz etish, ansambllarda turli matnlarning bir vaqtda moslashuvi) bo'lgan alohida talablar inobatga olinishi lozim.

Libretto dramaturgiyasini yaratishda uning mohiyatiga qarab taniqli adabiyot arboblari, professional yozuvchilar qatnashadilar.

Libretto – kompozitor uchun haqiqiy musiqiy asarni yaratish ustida ish olib borish uchun asosiy va muhim manba hisoblanadi. Librettodagi oddiy, ahamiyatsiz obrazlarni kompozitor jonlantirishi kerak. Obrazlar yashashi, sevishi, his etishi kerak. Aynan shuning uchun opera to'laqonli, mustaqil asarni o'zida namoyon etadi. Adabiy san'at musiqa bilan hamjihatlikda yashaydi. Libretto matnining bir nechta sahifasidan tinglovchini hayratlantiruvchi rang-barang va insoniy xususiyatlarga, tuyg'ularga boy musiqiy asar yaratiladi. Operada tabiatan shakllangan, turmush va ma'naviy dunyoni umumiyligini mujassamlovchi badiiy shakl aks ettiriladi. Obyektiv reallikning bayoni muallifning atrof-muhitga bo'lgan shaxsiy dunyoqarashi orqali namoyon etilgan. V.A.Mosart, J.Verdi, J.Bize, J.Puchchini, P.Chaykovskiy, M.Musorgskiy, S.Prokofyev, D.Shostakovich, M.Ashrafi, M.Bafojev operalarining qahramonlari fikrimizga misol bo'la oladi. Dunyoni individual shakllarda ko'rishdan rivojlanib borgan opera o'zida san'atning rivojiga ta'sir etuvchi aniq tarixiy vaqtlarni, obyektiv omillarni birlashtiradi.

Badiiy obraz dramaturgiyasi. Badiiy obraz voqyelikni namoyon etib, his-tuyg'u va shaxsiy xususiyatlarni o'zida mujassamlaydi. Obrazning hayajonli ifodaviyligi uning tabiatida mujassamlangan. Chunki tomoshabinga bevosita ruhiy ta'sir etish ijodkorning dunyoni anglab yetishi omilini tashkil etadi. Ta'sirchan tomoshabin taassurotlari bilan bog'liqlik insonning ichki ruhiy va emosional holatini nozik ifodalab bera oladigan operalarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

Dramaturgik rivojlanishda hayajonli hissiy va oqilona mantiqiy unsurlarning o'zaro jipslashuvi hosil bo'ladi. Jahon opera adabiyotidagi ko'pgina misollar asosida badiiy obrazning shakllanishi jarayonida olamni badiiy va ilmiy anglab yetishning bog'liqligini aniqlash mumkin. Masalan, «Orlean qizi» operasi ustida P.Chaykovskiy ish olib borganda Uyg'onish davridagi Fransiya tarixini, Janna D'Ark haqidagi adabiyotlarni o'rganib chiqqan. Operada rivojlanib boruvchi voqyea o'sha davrga singib ketgan. N.Rimskiy-Korsakov «Pskovlik qiz» operasi ustida ishlaganda Qahrli Ivan davlatni boshqargan davrga bag'ishlangan ko'pgina tarixiy hujjatlar bilan tanishib chiqqan. A.Borodin «Knyaz Igor» ustida ish olib borganda Qadimgi Rus tarixini obdon o'rgangan. M.Bafoyev «Umar Hayyom» va «Al Farg'oniy» operalarini yaratish jarayonida Umar Hayyom va al Farg'oniy yashagan davrlar bilan bog'liq ilmiy adabiyotlar va hujjatli manbalarni o'rganishga kirishib ketgan.

XULOSA

Prezidentimiz I.A.Karimov «Yoshlari bilimdon yurtning kelajagi buyuk» deb ta'kidlaganlaridek hozirgi kunda Vatanimiz kelajagini ma'naviyatli, madaniyatli, har tomonlama taraqqiy etgan yoshlar belgilab beradilar. Shuning uchun ham yoshlarni ota-bobolarimizdan qolgan katta ma'naviy manba bo'lgan qadriyatlar, idroklar asosida komil inson bo'lib yetishiga erishish uchun har bir jamiyat a'zosi o'z hissasini qo'shmog'i darkor.

Opera san'ati inson tafakkurining yuksak na'munalaridan biri hisoblanadi. Musiqa tarixida uning taqdiri muhim va alohida ahamiyatga molik. Janr paydo bo'lishi bilanoq eng yirik, demokratik hamda insonlarni ma'naviy madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkaza oladigan san'at turi sifatida rivojlanadi. Opera, klassik davrda o'ziga xos, romantizm davrida o'zgacha XX asrda esa turli "Qiyofalar"da o'zini namoyon qildi. Musiqa san'atining yirik, monumental janrlaridan biri bo'lgan opera, O'zbekistonga XX asrning boshlarida kirib keldi.

Milliy operalarning dastlabki namunalari o'zbek musiqali dramasining rivoji asosida yuzaga kelgan. Dastlab bular o'zbek va rus kompozitorlari ijodiy hamkorligida yuzaga kelgan bo'lsa, keyinchalik tarixiy, romantik, lirik mavzularga murojaat etib, mustaqil ijod namunalari paydo bo'ldi. O'zbek opera san'ati o'z taraqqiyoti davomida kompozitorlar tomonidan turli uslub va yo'nalishlarda qamrab olindi. O'zbek operalarining deyarli barchasi yevropacha shakllar asosida, milliylik ruhi va xalqimizning turli an'analariga xos tarzda tarannum etilgan.

70-80 yillarda opera janri mavzu jihatdan boyib, tarixiy, zamonaviy mazmundagi kamer operalar sahnalashtiriladi.

Mustaqillik yillariga kelib esa janr turli modernizm yo'nalishlari ta'sirida rivoj topdi. Shunga qaramay uning bosib o'tgan yo'li oson kechdi deb bo'lmaydi.

Opera librettosini musiqiy bezashda kompozitor boshidan oxirigacha musiqiy ijod muhitida bo'ladi, yaxlit dramatik spektakl nuqtai nazaridan ham, uni tashkil etuvchi alohida qayta ishlash nuqtai nazaridan ham o'z san'atining bebaho vositalarini qo'llaydi.

Operaning vokal partiyalari va orkestr partiturası kompozitorga musiqali dramada musiqaning hal qiluvchi o'rnini tasdiqlash imkonini beradi. Bu asar emosional mazmunini chuqurlashtirib, sahnaviy ta'sirchanligini oshiradi. Tashqi tasviriy damlardan boshlab nozik ruhiy qirralarda yakunlangan barcha ifodaviy vositalarni dramatizasiyalash omilining buyukligini tashkil etadi. Musiqiy nutq, musiqiy shakllanishning qonuniyati bunda nafaqat buzilmaydi, balki benihoya yorqin mustahkamlanadi va musiqa nutqining badiiy nutq singari katta tashkiliy vazifasini ko'rsatishni mustahkamlaydi.

O'zbekistonda farvonlik va taraqqiyot qaror topishi uchun avvalo yosh avlod idrokli, hamma narsaga fahmu-farosati yetadigan, o'tkir zehnli, sezgir bo'lishlari muhim ahamiyatga egadir.

Zero Prezidentimiz I.A.Karimov «Biz bolalarimizga bilim va kasb ko'nikmalarini egallashi uchun qanot bo'lishimiz darkor» deb ta'kidlaganlari bejiz emas. Hozirgi kunda bizning ya'ni, yosh avlodning vazifasi asrlar davomida saqlanib kelinayotgan musiqiy merosimizni xalq durdonalarini, qadriyatlarimizni ko'zga qorachig'imizdek asrab avaylashdan iboratdir.

Maktab musiqa o'qituvchisining oldida shaxslararo munosabatlarni, ayniqsa yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida o'rganib chiqib, har bir sinf jamoasi bo'yicha fikr mulohaza tahlillarini berib sinf rahbarlarida qo'ldan keladigan yordamlarini berishi kerak bo'lgan vazifalar turadi.

Yuqoridagi fikrlarni amalga oshirish niyatida men, o'z bitiruv malakaviy ishimning mavzusini «O'zbekiston kompozitorlarining opera asarlarini o'rganish jarayonida musiqiy idrokni tarbiyalash» deb nomladim.

Idrok so'zi aslida «Tushunib olish, qobiliyati to'g'ri va aniq tafakkurga ega bo'lish» ma'nolaridan iboratdir. Ammo musiqiy idrokni tarbiyalash bu juda keng doirada yosh avlodni musiqy his tuyg'ularini o'stirish, kengaytirish musiqiy badiiy fikrlarni to'g'ri anglash musiqa o'qituvchisidan katta mahoratni talab etadi.

O'zbek kompozitorlarining opera asarlari asosida o'quvchilarni musiqiy idrokini tarbiyalash, operalardagi asosiy va salbiy obrazlar musiqalarni bolalarga tushuntirish yo'llari bu musiqa o'qituvchisini asosiy vazifalaridan biridir. Opera

janrining o'zi bu murakkab musiqiy asardir. Shuning uchun bu sintetik asarni hamma tomonlama tahlil etish (sahna, davr talabiga binoan sahna bezaklari, kostyumlar, musiqiy bezaklar, uvertyura, antraktlar, ariyalar, ansambllar, xor jamoalarning qo'shiqlari, raqs sahnalari, duetlar va boshqalar) ancha tayyorgarchilikni talab etadi.

Bitiruv malakaviy ishim kirish ikki bobdan, olti qismdan, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir. Har bir qismlarni iljoi boricha tushunarli tilda bayon etishga harakat qildi.

Mening fikrim bo'yicha yuqoridagi harakatlarim maktab o'quvchilarining musiqiy san'atimizning murakkab yo'nalishi bo'lish opera asarlarini oz bo'lsada tushunib olishlariga va ularning idrokini tarbiyalashda yordam beradi degan umiddaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi» T. 1999 yil 54-56 betlar
2. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T. O'zbekiston 1996 yil
3. Karimov I.A. «Istiqlol va ma'naviyat» T.O'zbekiston 1994
4. Karimov I.A. «Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili» T.O'zbekiston 1995 yil
5. Karimov I.A. «O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida» T.O'zbekiston 1994 yil
6. Vizgo T.S., Istoriya uzbekskoy sovetskoy muziki Karamatova I.N. T.G.Gulyan 1972 g. I-II tom.
7. Valixo'jayev N.V. Jahon bo'ylab Samarqand taronasi. T. 1986 yil.
8. Jumaniyozov R. Xalq ijodi haq ijodi T.«O'zbekiston» 1993 y.
- 9.Rajabiy Yu. Musiqa merosimizga bir nazar. T.G'Gulom 1978 y. 10-14 bet.
- 10.Solomonova T.E. O'zbek musiqasi tarixi T.«O'qituvchi» 1981 g.
- 11.Sarimsoqov B.I. O'zbek folklori ocherklari T. «Fan» 1989 y.
12. Fitrat. «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi»-T.-fan 1993 yil.
- 13.R.Qodirov. «Boshlang'ich maktabda ko'p ovozli kuylash». -T.:O'qituvchi 1997 yil.
- 14.Kiyamov.N.S va boshqalar. «Samarqanddan taralgay jahonga sharq taronalari»Risola.-T.Navruz nashriyoti.-2013yil.
- 15 I.Qudratov. Talabalar va bolalar ashula va xor jamoalarini tashkil etish va ular bilan ishlash metodikasi.-T.:Fan va texnologiyalar bosmaxonasi-2006 yil.
- 16.R.Sarimsoqov «Ko'hna Jizzax navolari» Qo'shiqlar to'plami. To'plovchi va notaga oluvchi R.Sarimsoqov-Jizzax.2007yil.
- 17.O.Ibrohimov, O.Yo'ldoshev. Musiqa. 4-sinf uchun darslik.Toshkent. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti-2003yil.
- 18.A.Mansurov, D.Karimova. Musiqa. 5-sinf uchun darslik.Toshkent. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti-2002 yil.
- 19.Begmatov S, Q.Mamirov.Musiqa. 6-sinf uchun darslik.Toshkent.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti-2004yil.

- 20.O.Ibrohimov, Sh.Sodiqov. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. T.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti-2004yil.
- 21.O.Safarov. "O'zbek xalq og'zaki ijodi".Toshkent.Musiqa nashriyoti-2010yil.
- 22.M.Murodova. "Folklyor va etnografiya." T."Aloqachi nashriyoti"-2008 yil.
- 23.E.Fayzullayev. "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi.T.Fan va texnologiyalar nashriyoti-2007yil.
24. www.pedagog.uz sayti.
25. www.ziyouz.com portali.
26. www.ziyouz.com ta'lim portali.

MUNDARIJA
“OPERA IJODIYOTINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O’RNI”
(M.ASHRAFIY OPERALARI MISOLIDA)

Kirish.....	
I Bob. Opera san’ati inson tafakkuri yuksak namunalaridan biri.....	
1.1. Musiqali drama spektakllari orqali yosh avlod ma’naviy dunyosini boyitish.	
1.2. Opera janrining o’zbek kompozitorlari ijodiyotida tutgan o’rni.....	
1.3. Opera janri orqali maktab o’quvchilarining jahon musiqa madaniyati haqidagi tushunchalarni shakllantirish.....	
II BOB. Opera san’ati orqali o’quvchi yoshlarni jahon musiqa san’ati va o’zbek opera san’ati to’g’risida tushuncha berish.....	
2.1. Muxtor Ashrafiy birinchi o’zbek operasi ijodkori sifatida.....	
2.2. Umumta’lim maktablarining musiqa madaniyati darslarining musiqa tinglash jarayonida opera janrlaridan foydalanish uslublari.....	
2.3. O’zbek kompozitorlarining opera asarlari orqali yoshlarda musiqiy idrokni tarbiyalash.....	
Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi
fakul'teti bitiruvchilari, 511100 - musiqiy ta'lim yo'nalishi musiqa nazariyasi va an'anaviy ijrochilik
kafedrasining 2014 yil 27 mayda bo'lib o'tgan
№10 yig'ilish bayonnomasidan
KO'CHIRMA

Samarqand shahri
27 may, 2014 yil.

Qatnashdilar:
Kafedra mudiri va barcha kafedra a'zolari.

K U N T A R T I B I :

Ikkinchi masala: IV kurs bitiruvchilari bakalavriat darajasidagi talabalarning bitiruv malakaviy ishlarini muhokama qilish va himoyaga tavsiya etish.

Kafedra mudiri katta o'qituvchi Sh.N.Mustafayev bitiruv malakaviy ishlarining himoyaga tavsiya etish maqsadida ularning hozirgi vaqtgacha bo'lgan tayyorgarligi haqida gapirdi. So'ngra bitiruv malakaviy ishlarining mualliflariga so'z berildi.

ESHITILDI: IV kurs bitiruvchilari Bobojonova Mavluda To'ymurodovna - «Jo'rsiz xorlar maktab o'quvchilarini estetik ruhda tarbiyalash vositalari» ilmiy rahbar prof.M.Quronov, Boboyeva Sitora Amonovna - «Opera ijodiyotining yoshlar tarbiyasidagi o'rni» (M.Ashrafiy operalari misolida), ilmiy rahbar prof. M.Quronov, G'ofurova Nozigul Uchqunovna - «Samarqand musiqa o'quv dargohlarining rivojlanishi yoshlar tarbiyasida» ilmiy rahbar prof. M.Quronov, Oydinov Otabek Baxromovich «Litsey va kolledj o'quvchilarini tarbiyalashda o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining ahamiyati», ilmiy rahbar prof.M.Quronov, Isayeva Sarvinoz Husenovna - «O'zbek kompozitorlari asarlarida Vatanparvarlik mavzularining yoritilishi» ilmiy rahbar prof. M.Quronov, Burxonov Muhammadbashir Hikmatullayevich - «Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini estetik shakllantirish» (O'zbek mumtoz musiqasi misolida). ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Djurayeva Orasta Axmadovna - «Musiqa san'ati orqali o'quvchi shaxsini sxloqiy-estetik hislatlarini shakllantirish» ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Karimov Alisher Odilovich - «O'rta asrlarda O'rta Osiyo qomusiyolimlarining musiqiy-ijtimoiy pedagogik qarashlari» ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Qurbonova Feruza Hasanboy qizi «Shaxs kamolotini rivojlantirishida musiqa tarbiya nazariyasining o'rni» ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Xolboyev Ro'ziboy Eshmuratovich «Musiqa fol'klori vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning o'ziga xosligi» (5-7 sinflar misolida) ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Jumaboyeva Gulasal Xasanovna «Barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida musiqa san'atining o'rni» ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova, Nurmuxammedov Bobur Anorboy o'g'li «Musiqa san'ati va estetik tarbiya muammolari» (kollejlarda misolida) ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova, Teshayev Zoxid Asqar o'g'li «Milliy qadriyatlar va musiqa san'atining rivoji» ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova, Umrzoqov Sayfiddin Iskandarovich «Mustaqillik yillarida musiqa madaniyati» (litseylar misolida) ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova, Asrorova Shaxnoza Shavkatovna «Umuminsoniy qadriyatlar tizimida musiqa san'ati» ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova nomli ishlarning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, mazmunlari haqida ma'lumotlar berildi.

SO'ZGA CHIQDILAR: katta o'qituvchi Sh.Mustafayev, dots. N.S.Qiyomov, dots. J.J.Kozimov, dots. G.Q.Xurramova, o'qituvchi M.A.Akramovalar Malakaviy bitiruv ishlarining barchasi talab darajasida bajarilganligi, bu ishlar nizom qoidalariga to'liq javob berishlari e'tirof etiladi. Ishlarni ochiq himoyaga tavsiya etish mumkin deb hisobladilar.

KAFEDRA YIG'ILISHI QAROR QILADI:

1. IV- kurs bitiruvchisi Boboyeva Sitoraning bitiruv malakaviy ishi to'g'risidagi kafedra a'zolarining bildirgan fikrlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Bitiruv malakaviy ish to'g'risidagi ba'zi bir kamchiliklar Yakuniy Davlat attestatsiyasiga qadar bartaraf etilsin.
3. Boboyeva Sitoraning malakaviy bitiruv ishi YaDA himoyasiga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

Sh.N.Mustafayev

Kotiba:

Xolmurodova S.

